

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

**T.M. QODIROV, X.A. ALIMOV,
G.R. RAFIQOVA**

**SANOAT KORXONALARI
VA FUQARO
BINOLARINING ELEKTR
TA'MINOTI**

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2007*

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik
birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
Kengash nashrga tavsiya etgan*

Taqrizchilar:

*S.S. Saidahmedov — texnika fanlari nomzodi, dotsent,
A.A. Azizov — texnika fanlari nomzodi, dotsent*

Mazkur o'quv qo'llanma «Sanoat korxonalarini va fuqaro binolarining elektr ta'minoti» fanidan kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan o'quv dasturi asosida yozildi. Unda sanoat korxonalarini va jamoa binolarini elektr ta'minotining asosiy masalalari keltirilgan. Elektr yuklamalar grafiklari va ularni hisoblash usullari yoritilgan. Bundan tashqari korxonalar va jamoat binolarini elektr ta'minoti sxemalari va uskunalari relyefi himoyasi ko'rib chiqilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma kasb-hunar kollejlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan keng kitobxonlar ommasi ham foydalanishlari mumkin.

Q 220200000-156 – 2007
360/04/-2006

ISBN 978-9943-05-033-4

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007-y.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining elektr energetikasi xalq xo‘jaligining asosiy sohasi hisoblanib, sanoat korxonalari, shaharlar, transport, qishloq xo‘jaligi iste‘molchilarini elektr energiyasi bilan ta‘minlab kelmoqda va xalq xo‘jaligining rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda.

Asr boshlarida Toshkent shahrida ikkita elektr stansiya: bittasi quvvati 1450 kVt li tramvayni ta‘minlash uchun, ikkinchisi esa quvvati 125 kVt li shaharni yoritish uchun qurildi.

1913- yilda O‘zbekiston hududida 6 ta kichik dizel elektr stansiyalari umumiy quvvati 3 mVt va 3,3 mln kVt.soat energiyasi ishlab chiqarilgan edi.

Turkiston o‘lkasini elektrlashtirish rejasining tuzilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 1923- yili Bo‘zsuv kanalida gidroelektr stansiyasi (GES) qurila boshlandi. 1926- yili O‘zbekiston energetikasining birinchisi, o‘sha vaqtda O‘rta Osiyoda eng katta bo‘lgan 2 ming kVt quvvatli Bo‘zsuv GES ining birinchi navbati ishga tushdi. Bir vaqtning o‘zida 30 transformator punktli 6 kV li kabel tarmog‘i qurildi va Toshkent shahrida dizel-tramvay elektr stansiyasi bilan bog‘landi. Bu birlashish O‘zbekiston energetikasining rivojlanishiga asos bo‘ldi.

1920- yilda respublikada issiqlik energetikasi dizel va mayda bug‘ turbinali elektr stansiyalari qurildi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo‘qon dizel elektr stansiyalari kengaytirildi. Buxoroda 5000 o.k li, Samarqandda, Nukusda, Urgench va Namanganda 1600 o.k li katta dizel elektr stansiyalari qurildi. Farg‘ona va Kattaqo‘rg‘on yog‘-moy zavodlarida respublikamizda birinchi bug‘ turbinali elektr stansiyalari ishga tushirildi. Respublikada birinchi issiqlik elektr markazi (ISM) — Farg‘ona yog‘-moy zavodining «Sharq yulduzi» stansiyasi qurildi.

1930- yillarda Toshkent to‘qimachilik kombinati issiqlik elektr stansiyasining 6 mVt quvvatli ikkita turbinasi ishga tushirildi.

1939- yilda Qizilqum ko‘mir havzasi negizida Quvasoy elektr stansiyasining (IES) 12 mVt quvvatli kondensatsion turbina agregati ishga tushirildi.

1936- yilda Toshkent IEM qurilishi boshlandi va 1939- yilda birinchi bloki ishga tushirildi. 1931- yilning 27- martida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo energetika s‘yezdida O‘zbekistonni elektrlashtirish rejasi qabul qilindi. Shu rejaga asosan, elektr stansiyalarining o‘rnatilgan quvvatini 1941- yilga kelib, 170,5 mVt ga orttirish ko‘zda tutildi. 1934- yilning 25-sentabrida O‘zbekiston energetika sistemasi tuzilgan paytda Chirchiq — Bo‘zsuv yo‘nalishidagi 180 ming kVt quvvatli ketma-ket qurilgan GES va sanoat korxonalarini birlashtiruvchi magistral elektr tarmoqlar qurildi. Qodir GES ining ishga tushirilishi bilan bir vaqtning o‘zida Respublikada birinchi bo‘lib, bu GES dan Toshkentga elektr uzatuvchi 35 kV kuchlanishli ikki tizimli liniya foydalanishga topshirildi.

1941- yilda umumiy quvvati 100 mVt ga teng bo‘lgan 4 stansiya ishga tushirildi.

1941—1945- yillarda Toshkent atrofini bog‘lovchi 35 kV kuchlanishli halqasimon havo liniyasi qurib bitkazildi, shimoliy sanoat hududini elektr bilan ta‘minlashi uchun katta quvvatli «Северная» podstansiyasi qurildi. 1941—1945- yillarda Chirchiq daryosida va Bo‘zsuv kanalida yana umumiy quvvati 68 mVt bo‘lgan 6 ta suv elektr stansiyalari qurib bitkazildi. 1943- yili Sirdaryo daryosida qurila boshlangan 125 ming kVt quvvatli Farhod GES i kimyo sanoatini rivojlantirish va sug‘orilgan yerlarni suv bilan ta‘minlash imkoniyatini berdi. Keyingi yillarda bir nechta katta bo‘lmagan suv elektr stansiyalari (quvvati 20 mVt gacha) Bo‘zsuv kanalida (Toshkent viloyati), Dargom (Samarqand viloyati), Shahrixon (Andijon viloyati), Shimoliy Farg‘ona (Namangan viloyati) ishga tushirildi. Bir vaqtning o‘zida ko‘mirda ishlovchi issiqlik elektr stansiyalari barpo etildi (Quvasoy IES, Toshkent va Farg‘ona IEM).

1945- yildan so‘ng gidroelektr stansiyalar hisobiga energetika sistemasining quvvati ortdi. 1950- yillarda suv elektr stansiyalari hisobiga ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 64,3% to‘g‘ri keldi. Bu esa xalq xo‘jaligining elektr ta‘minotini Chirchiq va Sirdaryo daryolarida suv bilan ta‘minlanishiga bog‘liq bo‘lib qoldi.

Angren ko‘mir havzasining o‘zlashtirilishi ikki issiqlik stansiyasi 600 ming kVt IES ini va Olmaliq issiqlik hamda elektr quvvati markazini (IEM) qurilishiga asos bo‘ldi.

1972- yilda Sirdaryo IES ida O‘rta Osiyoda birinchi 300 mVt quvvatli energetika bloki ishga tushirildi. Hozirgi paytda Sirdaryo IES ida 10 ta shunday quvvatli bloklar ishlamoqda.

1987- yili qishloq xo‘jaligida 12,6 mlr kVt.soat elektr energiya iste‘mol qilindi, bu energetika sistemasi iste‘molining 30,1% ni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasidagi hamma kuchlanishli elektr tarmoqlarining uzunligi 220 ming km ni tashkil etib, bunda 500 kV kuchlanishligi 1,6 ming km 220 kV – 4,6 ming km, 0,4 – 10 kV ligi 170 ming km.

Hozirgi kunda O‘zbekiston energetika tizimi xalq xo‘jaligi hamda aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talabini to‘liq qondirmoqda hamda energiyani eksport qilish imkoniyatiga ega.

I BOB.
ELEKTR ENERGETIKASI VA SANOAT
KORXONALARINING ELEKTR TA'MINOTI TIZIMI
HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. ELEKTR TIZIMINING TUZILISHI

Elektr ta'minoti tizimi (ETT) deb, elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi, uzatuvchi va taqsimlovchi qurilmalar birlashmasiga aytiladi. Sanoat korxonasiining elektr tizimi korxonada iste'molchilarini (har xil mashina va mexanizmlarning elektr yuritkichlari, elektr pechlar, elektroliz qurilmalari, elektr payvandlash uskunalari, yoritish qurilmalari, turli elektrotexnologik uskunalari va hokazo) elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun yaratiladi. Bunday tizim 1 kV gacha va undan yuqori kuchlanishli tarmoqlar, transformator podstansiyalari, o'zgartirish va taqsimlash qurilmalaridan tashkil topadi.

Sanoat korxonalarining elektr ta'minotini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya jarayonlarida quyidagi masalalarni yechish talab etiladi.

1. *Ratsional kuchlanishni tanlash va ishlatish.* Ma'lumki, korxonalarda 220, 110, 35, 10, 6, 0,38 va 0,22 kV li kuchlanishlar ishlatiladi. Ratsional kuchlanishlarni ishlatish korxonaning elektr ta'minoti tizimini arzonlashtiradi va elektr energiyasi nobudgarchiligini kamaytiradi. Shunday korxonalar mavjudki, ulardagi elektr energiyasining nobudgarchiligi (30÷35)% gacha yetadi.

2. *Transformatsiyalash sonini kamaytirish.* Sanoat korxonalarida elektr tizimida transformator eng qimmat uskunalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ularning soni to'g'ri tanlansa, elektr tizimini arzonlashtirish va nobudgarchilikni kamaytiradi. Transformatsiyalash sonini to'g'ri tanlash natijasida elektr energiyani tejash korxonaning umumiy energiya sarfini 10÷15% ini tashkil qilishi mumkin.

3. *Bosh pasaytiruvchi podstansiya (BPP) va boshqa podstansiyalar qurilmalarining joylanish o'rnini to'g'ri tanlash.* Bu vazifani

ratsional bajarish elektr tarmoqlarida ishlatiladigan liniyalar uzunliklarini kamaytiradi, energiyaning sifatini orttiradi va nobudgarchiliklarni kamaytiradi.

4. *Korxonaning kutilayotgan yuklamasini aniqlash.* Hisobiy yuklamani to'g'ri aniqlash elektr ta'minoti tizimini optimallashtiradi, elektr uskunalarni to'g'ri tanlash imkonini yaratadi.

5. *Elektr ta'minotining ratsional sxemasini qabul qilish.* Bunda har xil sxemalar uchun texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar solishtiriladi va eng ishonchli hamda kam sarf-xarajatliligi tanlab olinadi.

6. *Korxonada elektr ta'minoti tizimini optimallashtirish* jarayonida yuklamalarni simmetriyalashtirish, reaktiv quvvatni kompensatsiyalash, kuchlanishni rostdash, elektr ta'minoti elementlarini ishonchli himoyalash bo'yicha qator masalalarni yechish talab etiladi.

7. *Elektr ta'minoti tizimida mukammal avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish.* Bunda ta'minot tizimining ahvoli hamda barcha signallar, relye himoyasi elementlarining ishlari haqidagi axborotlar, avtomatika tizimining xabarlari EHM ga kelib tushadi va bular asosida elektr va texnologik qurilmalarning ishlari aniq boshqariladi.

Elektr ta'minoti tizimini boshqarish modeli quyidagi pog'onalardan tashkil topadi:

a) birlamchi elektr va texnologik parametrlarning holatini maxsus qurilmalar orqali uzatish;

b) birlamchi informatsiyalarni tahlil qilish;

d) tekshiruv-hisoblash operatsiyalarini bajarish;

e) bajaruvchi organlarga boshqaruv signallarini uzatish.

8. *Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga o'tishda yuqori malakali, avtomatika va hisoblash texnikasidan kerakli bilimga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash.*

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi zamon korxonalari elektr ta'minoti mutaxassislardan chuqur bilimga ega bo'lish, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning elektr ta'minoti tizimini optimallashtirish bilan birga olib borish va elektr energiyasidan ratsional foydalanish usullarini bilish talab etiladi.

Yevropa va Osiyoda elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash 50 Gs chastotali uch fazali o'zgaruvchan tok

bilan bajariladi. Buni o'zgaruvchan tokning boshqa turdagi energiyaga oson aylantirilishi va juda ishonchli bo'lgan asinxron elektr mashinalarini ishlatish mumkinligi bilan tushuntirish mumkin.


Elektr qurilmalarining tayyorlash sonini kamaytirish maqsadida Davlat standarti tomonidan generatorlar, transformatorlar, tarmoqlar va iste'molchilar uchun quyidagi nominal kuchlanishlarning muayyan qiymatlari 1.1- jadvalda belgilangan.

1.1- jadval

Tarmoqlarning nominal kuchlanishlari, kV	Generatorlarning nominal kuchlanishlari, kV	Transformatorlarning nominal kuchlanishlari, kV		Izolyatsiyalarning uzoq muddat ishlashi mumkin bo'lgan kuchlanishi, kV
		Birlamchi chulg'am uchun	Ikkilamchi chulg'am uchun	
0,22		0,22	0,23	
0,38		0,38	0,4	
0,66		0,66	0,69	
(3)	(3,15)	(3)	(3,15)	(3,6)
(6)	(6,3)	(6)	(6,3)	(7,2)
10	(10,5)	10	10,5	12,0
20	21	20	21	24,0
35		35	38,5	40,5
110		110	121	126
(150)		(150)	(165)	(172)
220		220	242	252
330		330	347	368
500		500	525	525
750		750	787	787

Ilova. Qavsda ko'rsatilgan kuchlanishlar yangi loyihalashtirilayotgan tarmoqlarga tavsiya etilmaydi.

Elektr stansiyasidagi generatorlar va elektr stansiyalari parallel ishlaydi. Bu esa elektr ta'minoti tizimining ishonchliligini orttiradi, zaxirada elektr uskunalarning sonini kamaytiradi, elektr energiyasining narxini arzonlashtiradi va qurilmalarning tekis yuklanishini ta'minlaydi.



1.1- rasm. Elektr energetika tizimi qismining soddalashtirilgan sxemasi.

Elektroenergetika tizimi qismining soddalashtirilgan sxemasi:

- TP — transformator podstansiyasi;
- BPP — bosh pasaytiruvchi podstansiya;
- TQ — tarqatuvchi qurilma;
- TTP — tugun taqsimlash podstansiyasi;
- NTP — tuman transformator podstansiyasi;
- YuL — yuqori kuchlanish liniyasi;
- IES — issiqlik elektr stansiyasi;
- GES — gidroenergetik stansiya;
- IEM — issiqlik elektr markazi.

Elektr va issiqlik energiyalarini ishlab chiqaruvchi, taqsimlovchi va iste'mol qiluvchi qurilmalarning o'zaro elektr va issiqlik tarmoqlari bilan bog'lanishiga energetik tizim deyiladi. Bunday tizimning issiqlik ishlab chiqaruvchi va issiqlik tarmoqlari kirmaydigan qismi elektroenergetika tizimini tashkil etadi.

1.2. SANOAT KORXONALARINING ELEKTR TA'MINOTI TIZIMI

Sanoat korxonalarining elektr ta'minoti tizimi korxonalar iste'molchilarining elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun bunyod etiladi. Iste'molchilarga quyidagilar kiradi: har xil mexanizmlarning elektr yuritkichlari, elektr pechlari va elektrotermik uskunalar, elektroliz qurilmalari, elektr payvandlashlar uchun kerakli apparat va mashinalar, yoritish qurilmalari, elektr filtrlar va boshqalar.

Sanoat korxonalarining asosiy manbai bo'lib, tuman elektroenergetika tizimi hisoblanadi. Misol tariqasida 1.1- rasmda elektroenergetika tizimi qismining soddalashtirilgan sxemasi ko'rsatilgan bo'lib, undan ikki sanoat korxonasi energiya bilan ta'minlanadi. Tizimning IES, GES va IEM stansiyalari o'zaro 220 kV va 110 kV liniyalar bilan bog'lanib, barcha iste'molchilarni elektr bilan ta'minlaydi.

Elektr stansiyalarida o'rnatilgan generatorlarda energiya (6,9-21) kV kuchlanish bilan ishlab chiqiladi. Iste'molchilar va energiya manbalari oralaridagi masofalar juda uzoq bo'lganligi uchun elektr stansiyalarida o'rnatilgan transformatorlarda kuchlanish 110 kV va undan yuqori miqdorga orttirilib, korxonalariga yuboriladi. Bu esa uzatish va taqsimlash liniyalarida energiya isrofini kamaytiradi. Korxonalarining elektr energiyani qabul qilish podstansiyalarida kuchlanish miqdori pasaytirilib, iste'molchilarga uzatiladi.

1.3. ELEKTR STANSIYALARINING TURLARI

Dunyodagi, shu jumladan, mamlakatimizdagi barcha elektr stansiyalarida elektr generatori o'rnatilgan bo'lib, ular elektr energiyani ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarilgan elektr energiyani

uzoq masofaga kam isrofdan uzatish va iste'molchilarga taqsimlash uchun esa transformatorlar ishlatiladi.

Bundan tashqari sanoat va transportning zamonaviy texnik holati ularni elektr energiyasini yuksak ta'minlanganligi bilan belgilanib, bunda elektr mashinalari hal qiluvchi vazifani bajaradi.

Respublikamizda mahsulot ishlab chiqarayotgan yirik sanoat korxonalarini anchagina bo'lib, ulardagi turli dastgohlarni va yuk ko'taradigan kranlarni yuritishda hamda bu korxonalaridagi avtomatik sistemalarda elektr mashinalar va transformatorlar hal qiluvchi vazifalarni bajaradi.

Energiyaning bir necha turlari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi.

- mexanik energiya;
- elektr energiyasi;
- kimyoviy energiya;
- atom energiyasi;
- quyosh energiyasi;
- suv energiyasi.

Elektr energiyasi – eng arzon va uzatilishi qulay energiya. Bu energiyadan sanoatda, xalq xo'jaligida va turmushda keng foydalaniladi.

Elektr jihozlari, apparatlar va maishiy xizmat qurilmalarining ko'pchiligi uchun elektr energiya manbai zarur. Elektr stansiyasidagi manbai elektr generatori hisoblanadi.

Generator – energiyani elektromexanik qayta o'zgartirgich bo'lib, uning yordamida mexanik energiya elektr energiyasiga aylantiriladi, masalan, suv gidroturbinalari vositasida suv oqimining kinetik energiyasi mexanik energiyaga aylantiradi.

Sanoat, elektr transporti, qishloq xo'jaligi va maishiy ehtiyojlar uchun kerakli elektr energiyasi elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Ularning eng ko'p tarqalgani issiqlik elektr stansiya (IES), gidroelektr stansiya (GES) va atom elektr stansiyalar hisoblanadi. Bu elektr stansiyalaridan tashqari keyingi vaqtlarda elektr energiyasini ishlab chiqarishda quyidagi noan'anaviy elektr stansiyalari o'z hissasini qo'shmoqda:


- dizel elektr stansiyasi (DES);
- quyosh elektr stansiyasi (QES);
- geotermal elektr stansiya (Geot ES);

- shamol elektr stansiyasi (SHES);
- suv tabiiy ko‘tarishining elektr stansiyasi (STKES).

Hozirgi vaqtda ko‘pgina davlatlarda noan’anaviy elektr energiya manbalarining boshqa turlarini yaratish ustida katta ishlar olib borilmoqda.

GES prinsipial sxemasi (1.2- rasm).

To‘g‘onda suv yig‘ilib, maxsus joyda suv oqib turbinaning ish g‘ildiragi kurakchalariga tushadi. Suvning bosimi bilan turbinaning ish g‘ildiragi rotori ham aylanadi. Generator rotori turbina ish g‘ildiragi mexanik ravishda bog‘langan bo‘ladi. Generator mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantiradi.



1.2.- rasm. Hidroelektrostansiyaning prinsipial sxemasi.

Stansiyaning quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$$R=9,8 QH\eta.$$

Bunda: Q – turbinaga kelayotgan suvning miqdori;

H – bosim;

η – stansiyaning foydali ish koeffitsiyenti.

Suv omborli GES lar stansiyaning bosimi (H) 30–35 metr dan yuqori bo‘lgan hollarda quriladi. Tog‘li daryolarda suvning miqdori kam lekin bosimi katta bo‘ladi

GES ning turbinasi ikki xil bo‘ladi.

1. Aktiv turbinali.
2. Reaktiv turbinali.

GES larning foydali ish koeffitsiyenti 0,85 ga teng. Bunday stansiyalarda ishlab chiqarilgan elektr energiyaning tannarxi arzon, ammo GES qurish uchun katta kapital mablag' va vaqt talab qilinadi. GES lar suv havzalari bor joyda qurilgani uchun o'z ehtiyojidan ortiq elektr energiyasini uzoq masofalarga uzatadi. GES lar yuklamani tez o'zgarishiga tayyor rejimda ishlaydi.

Gidroenergetika, uning imkoniyatlari va rivojlanishi.

O'zbekiston Respublikasi energetika sistemasidagi 7 ta suv elektr stansiya kaskadlari va 27 ta suv elektr stansiyalari bilan belgilangan.

Hozirgi vaqtda O'zbek energetika sistemasida barcha GES larida o'rnatilgan quvvati 1420 mVt ni tashkil etadi. Ulardan bir yilda 6,5 mlrd.kVt · soat elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda.


Suv energetikasining rivojlantirilishi, asosan, kichik GES larni loyihalash va qurish dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Birinchilardan bo'lib Tupolang, Gissor, Ohangaron suv omborlarida o'rnatilgan quvvati 240 mVt ga teng bo'lgan suv elektr stansiyalarini qurish ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda o'rnatilgan quvvati 450 mVt ga teng bo'lgan Pskom suv to'g'onli GES loyihalarining ishlari olib borilmoqda.

Issiqlik elektr stansiyasining ishlash sxemasi. Organik yoqilg'i (ko'mir, gaz, slanes yoki mazut) qozonning o'chog'ida yonganda ajralib chiqqan issiqlik qozonga uzatiladi va undagi suv qizib bug'ga aylanadi. Bug' qizitkichda bug' kerakli temperaturagacha qizdiriladi va bug' turbinasiga uzatiladi. Bug' turbinasi elektr generatori bilan mexanik bog'langan bo'ladi va generatorda mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantiradi. Bug' turbina-dan chiqayotgan bug' kondensatorga uzatiladi. Kondensatordan bug' yana qozonga qaytadi va shu tarzda sikl yana takrorlanadi.


Shunday qilib, IES yoqilg'ining mexanik energiyas issiqlik, keyin mexanik, so'ngra esa elektr energiyasiga aylanar ekan (1.3- rasm).

Reaktorning aktiv qismida ajralib chiqqan energiya konturdagi issiqlik tashuvchi yordamida olinadi. Issiqlik tashuvchi sifatida suv yoki tez eriydigan metall ishlatiladi. Issiqlik almashuvida issiqlik tashuvchining energiyasi suvga o'tadi va bug'ga aylanadi. Bug' bosimi esa turbinani aylantiradi. Turbogeneratorda mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantiradi.

Shunday qilib, AES da atom energiyasi issiqlik, keyin me-xanik, so'ngra esa elektr energiyasiga aylanar ekan (1.4- rasm).



1.3- rasm. IES ning prinsipial sxemasi.



1.4- rasm. Atom elektr stansiyasining prinsipial sxemasi.

Issiqlik elektr markazlari. Elektr tizimlarida elektr energiyasini ishlab chiqarish katta issiqlik isroflari bilan bog'liq.

Shu bilan birga ko'pgina sanoat korxonalarida, jumladan, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat, metallurgiya va boshqalarda issiqlik texnologik maqsadlar uchun juda zarur.

Aholi turar joylarini isitish uchun katta miqdorda issiqlik talab qilinadi.

Issiqlikka bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun kichik individual qozonxonalarni qurish iqtisodiy qulay emas, chunki bunday qozonxonalarni FIK katta issiqlik stansiyasidan kam va zamonaviy

talablarga javob bera olmaydi. Bunday sharoitlarda issiqlik stansiyalardagi bug‘ generatorlaridan olingan elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste‘molchilarni issiqlashtirish uchun qo‘llash tabiiy.

Bunday vazifalarni bajaruvchi elektr stansiyalar *issiqlik elektr markazlari* deyiladi.

Iste‘molchilar talablariga javob beradigan bug‘ olish uchun maxsus oraliq bug‘ olish turbinalaridan foydalaniladi.

Bunday turbinalarda bug‘ energiyasining ma‘lum bir qismi turbinani harakatga keltirish uchun sarf bo‘ladi, keyin qolgan qismi iste‘molchilar uchun olinadi. Bug‘ning qolgan qismi oddiy usullar bilan turbinada qo‘llaniladi, keyin esa kondensatorga boradi.

Issiqlik energiyasining to‘liq ishlatilishi hisobiga TES lardagi FIK 60–65% ga yetadi, KES lardagi FIK esa 40% dan ortmaydi.

Iste‘molchi ta‘minotining unumli ishlashi IEM larni qanday joylashtirishga bog‘liq, ularni yirik issiqlik va elektr energiyasini iste‘mol qiluvchi yirik korxonalariga yaqin bo‘lishga harakat qilinadi, negaki issiqlik energiyasini bug‘ holatida 5–7 km dan uzatish iqtisodiy tomondan o‘zini oqlamaydi.

Lekin issiqlik ta‘minoti maksimal markazlashtirilganda TEM larda talab qilinayotgan elektr energiyasining 25–30% ini ishlab chiqarish mumkin.

Issiqlik energetikasi va uning yoqilg‘i bazasi. O‘zbekistonda 1960- yildan keyin quvvatlarni o‘sishi, asosan, tabiiy gazda ishlovchi katta issiqlik elektr stansiyalarini ishga tushirish hisobidan bo‘ldi.

O‘zbekiston issiqlik energetikasi rivojlanishining asosini Buxoro va Sho‘rtan tabiiy gaz havzalarini ochish va ishga tushirish tashkil etdi.

1995- yilga kelib katta quvvatli issiqlik elektr stansiyalarining ishga tushishi hisobiga energetika sistemasining o‘rnatilgan quvvati 11 ming kVt ni tashkil etgan bo‘lib, yiliga 52 mlrd kVt · soat dan ziyod elektr energiyasini ishlab chiqarish imkonini berdi.

Hozirgi vaqtda O‘rta Osiyoda yirik 3000 mVt quvvatli Sirdaryo IES i ishlamoqda.

O‘zbekistondagi issiqlik balansda tabiiy gazga alohida o‘rin ajratilgan. Chunki hozirgi zamonda energetikaning asosiy yoqilg‘i

turi – tabiiy gazda Toshkent, Sirdaryo, Navoiy, Taxiatosh IES, Muborak IEM va katta qozonxonalar ishlaydi.

O‘zbekiston energetika sistemasi xalq xo‘jaligi va aholisini to‘la elektr energiyasi bilan ta‘minlaydi.

1.4. NOAN‘ANAVIY ELEKTR ENERGIYA MANBALARI

O‘zbekistonda noan‘anaviy energiya manbalaridan foydalanish xalq xo‘jaligida bir qancha masalalarni yechishga imkon beradi. Masalan:

1. Organik yoqilg‘i manbalarini tejash.
2. Ekologiya holatini yaxshilash.
3. Aholining uzoq turar joylarida (havo uzatuvchi liniyalari va yoqilg‘i yetkazib berish imkoniyati bo‘lmaganda) energiya va issiqlik bilan ta‘minlash.

Ayniqsa hozirgi kunda organik yoqilg‘i tanqisligi vaqtida O‘zbekistonga noan‘anaviy energiya manbalarini kiritish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Energetika vazirligi tizimida 1,0 mlrd kVt · soat elektroenergiya ishlab chiqaruvchi va o‘rnatilgan quvvati 226 mVt ni tashkil etuvchi 22 ta kichik GES lar mavjud.

Respublikada kichik gidroenergetikani rivojlantirish buyurtmachilarning qurish va loyihalash ishlari Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligiga kiradi.

1985- yilda «Toshgidroloyiha» instituti tomonidan O‘zbekistondagi kichik gidroenergetikaning potensial resurslari aniqlangan va u 30,23 mlrd kVt · soatni, ishlatishning texnik imkoniyati mavjud bo‘lganlari esa 8,2 mlrd kVt · soatni tashkil etgan.

O‘zbekistonda suv oqimlaridan foydalanishning tizimlari mavjud, ko‘rilayotgan va loyihalashtirilayotgan suv xo‘jalik inshootlari va foydalanishning texnik imkoniyatlari mavjud bo‘lgan kichik gidroenergetik resurslar aniqlangan va ularning quvvati 7,3 mlrd kVt · soat miqdorida baholanmoqda, ulardan:

- daryolardagi boshqarilmaydigan qismlarda – 4,0 mlrd kVt · soat;
- irrigatsion suv omborlarida 1,1 mlrd kVt. soat;
- irrigatsion kanallar farqi hisobiga olinishi mumkin bo‘lgani 2,2 mlrd kVt · soat.

1992- yilda Toshgidroloyiha tomonidan «O‘zbekiston Suv xo‘jaligi vazirligi tizimida kichik GES lar taraqqiyoti 2010- yilgacha» loyihasi ishlab chiqildi. Bunda 141 ta GES nazarda tutilgan, bulardan 98 GES kanallarida va 43 GES suv omborlarida qurish mo‘ljallangan.

2010- yilgacha eng yaxshi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan 30 ta kichik GES larni qurish tavsiya etilgan. Bularning umumiy o‘rnatilgan quvvati 647 MVt va o‘rtacha uzoq muddatli elektr energiya ishlab chiqarishi 1,9 mlrd kVt · soat. Shuningdek, 2000- yilgacha quvvati 365 mVt va 1 mlrd kVt · soat elektorenergiya ishlab chiqaradigan 10 GES qurish mo‘ljallangan.

Kichik gidroenergetikani rivojlantirish muammosini hisobga olgan holda xo‘jaliklararo kichik GES larning elektr energiyasi iste‘molchilarini paychilik ishtirokida qurilishini amalga oshirish lozim.

Bundan tashqari kichik GES larning asosiy mukammal asbob-uskunalarini ishlab chiqarish masalasini hal qilish, kichik GES larni doimiy shaxs ishtirokisiz ham xizmat ko‘rsatish imkonini beradigan avtomatika va telemexanika komplekslari bilan jihozlashni talab qiladi.

Quyosh energiyasidan foydalanish masalasi hozirgacha muammo bo‘lib turibdi. Bu energiyani yig‘ishning arzonroq texnologiyasining yo‘qligi hozircha quyosh energiyasidan foydalanib, elektroenergiya ishlab chiqarish raqobatga dosh berolmaydi. Quyosh energiyasini ishlatishning hozirgacha ma‘lum bo‘lgan eng qulay yo‘nalishi — bu quyosh issiqlik ta‘minotidir.

O‘zbekiston energetika DAK da Buxoro elektr tarmog‘idagi 500 kV «Qorako‘l» podstansiyasida, Chorvoq oromgohida, Orom dam olish uyida quyosh energiyasini yig‘adigan (jamlaydigan) qurilmalar mavjud va bu qurilmalarni boshqa elektr tarmoqlarida qo‘llash nazarda tutilmoqda.

O‘zbekiston energetika DAKi yil sayin elektroenergiyasi olishda quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha loyihalash ishlarini ahamiyatli miqyosda o‘tkazmoqda. 1992- yili «O‘zbekistonda quvvati 30 MVt bo‘lgan modul tipidagi quyosh issiqlik elektr stansiyasi qurishning muqobil variantlari TED i» ishlab chiqildi. Bu ishda O‘zbekistonda quyosh elektr stansiyalari taraqqiyotining uch xil ko‘rinishi ishlab chiqilgan:

- markaziy hamda ichi bo‘shliqdan iborat bo‘lgan gelio qabul qilgichli va GGE-45 va PGU asosidagi minorali KIES;
- taqsimlanish parabola — silindrik yig‘gich va GTE-45 bilan PGU asosidagi KIES;
- Quvvati 30 MVt bo‘lgan taqsimlangan parabola — silindrik bir konturli KIES.

Bu loyihalash ishlarining amalga oshirilish muddati byudjet kapital qo‘yilmalari hisobiga moliyalashtirish imkoniyatidan aniqlanadi.

O‘zbekistonda shamol tezligi nisbatan kuchsiz, shuning uchun shamol energetik qurilmalarini keng qo‘llashning imkoni yo‘q. Shunga qaramay 1992- yilda Farhod GES va atrofida quvvati 16 kVt bo‘lgan shamol qurilmalari ishlatish tajribasini olish maqsadida ishlashga joriy qilindi.

Shamol xarakterini mavsumiylikni va shamolsiz davrlarni hisobga olgan holda shamol qurilmalarini energiya ta‘minoti tushuvi oson ko‘chadigan joylarda qo‘llash lozim.

O‘zbekistondagi ayrim shaharlarda (Andijon, Qo‘qon, Quvasoy) issiqlik ta‘minoti sxemalari issiqlik nasoslaridan foydalanishga asoslangan, bir tomondan esa energosistemada elektr quvvatining tanqisligi tufayli katta elektr quvvati iste‘mol qiluvchi bunday issiqlik nasoslarini qo‘llash tavsiya etilmaydi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining chiqindilarini, ishlab chiqarishdagi va maishiy chiqindilarni qayta ishlash orqali gaz ko‘rinishidagi biogaz yoqilg‘isini olishning katta imkoniyati mavjud.

Noan‘anaviy energiya manbalari haqida asosiy ma‘lumotlar

Energiya manbalari haqida ma‘lumotlar.

Hamma turdagi energiya manbalarini 2 guruhga bo‘lish mumkin:

- a) an‘anaviy energiya manbalari;
- b) noan‘anaviy energiya manbalari.

Anan‘aviy energiya manbalariga IES, IEM, GES lar kiradi. Noan‘anaviy energiya manbalariga esa AES, gaz turbina stansiyalari GTS (BGS, BGX), dizel (DES), geotermik ES, gidra

akkumulyator ES, shamol ES, kichik GES, magnitogidrodinamik ES, kimyoviy va boshqalar kiradi.

Noan'anaviy ES lar uchun yerning chuqur bag'rining harorati, dengiz to'liqlari va oqim energiyasi, daryo energiyalari, shamol energiyasi, biomassalar va shu bilan birga quyosh nuri energiyasi manba hisoblanadi.


Bu energiya manbalar zaxirasi juda ko'p. Shu qatorda yerning 3 km chuqurlikda energiyasi $1,9 \cdot 10^{17}$ kkal 5 km chuqurlikda 10×10^{17} kkal gacha, yerga tushayotgan energiya to'la quvvati 1 yil mobaynida $1500 \cdot 10^{15}$ kVt · soat ga yetadi. Shundan 40% yerning yuza qismiga tushadi. Dengiz oqimining energiyasidan butun Yer yuzida 3000 GVT miqdorda foydalaniladi.

Barcha mana shu energiya manbalaridan foydalanish ekologiyaga deyarli hech qanday zarar yetkazmaydi.

Bug' gaz turbina qurilmalari. 1940- yillarga kelib, IES larida turbinali qurilmalar ishlatila boshlandi. Avval qurilmalar samolyotlarda ishlatilar edi. Gaz turbinalarida mexanik harakat hosil qilish uchun yuqori bosimli, yuqori haroratli gaz ishlatiladi. Bunday stansiyalarda yoqilg'i sifatida gaz yoki neft mahsulotini tez ishga tushirish mumkin va ular yuqori foydali koeffitsiyentga ega bo'lib, hajmi kichik bo'ladi. O'zbekistonda birinchi bo'lib Navoiy viloyatida ishga tushirilishi kerak. Gaz turbinali elektr stansiyalarining quvvati 150 mVt atrofida bo'ladi. Bug' gaz turbina qurilmalari bir yo'la 2 xil holat bilan suvli bug' hamda gaz tarkibli aralashmani yopish bilan amalga oshiriladi. Bir necha radian sxemalarda bug' turbina va gaz turbinalarni alohida ishlatish mumkin, undan tashqari ba'zi sxemalarda esa bug' hamda gaz turbinalari birgalikda aralash ravishda bo'lishi mumkin.

Katta elektr stansiyalari uchun katta bosimli va ko'p bug' ishlab chiqaruvchi bug' generatorlar yaratilgan. Bug'lar bug' turbinasiga, yonuvchi mahsulotlarni gaz turbinasiga uzatilib, ulardan elektr generatori va havo kompressori o'rnida foydalanishga imkon beradi (1.5- rasm).

Bug' generatorida yoqilg'ining yonishi ta'sirida suv bug'ga aylanadi. Yuqori haroratdagi gaz bug' turbinasini harakatga keltiradi. Turbina bir o'qda joylashgan generatorda elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Bug' generatori o'chog'idagi gaz bug' turbinasiga yo'naltiradi, u yerda gaz energiyasi mexanik



1.5- rasm. Bug' va gaz turbina qurilmasi.

1—gaz turbinesi; 2—katta bosimli bug' generatori; 3—kompessor;
4—bug' turbinesi; 5—elektr generator.

energiyaga aylanadi. Turbina bilan bir o'qda joylashgan generatorida esa elektr energiyasi hosil bo'ladi. Bug' generator o'chog'ida yonish jarayonini tezlashtirish uchun kompressor orqali havo beriladi. Kompessor harakatini gaz turbinesi bajaradi. Kondensatordan chiqqan suv nasos orqali ekonomayzerga yuboriladi. Ekonomayzerda yuqori haroratli gaz ta'sirida suv qiziydi va u bug' generatoriga yuboriladi. Shunday qilib, bug' gaz qurilmalarida 2 ta blok ishlaydi.

Bug' va gaz siklini birgalikda qo'llash solishtirma issiqlik isrofini 4–7% kamaytiradi. Chet el mamlakatlari (AQSH, FRG) da bug'-gaz qurilmalari keng tarqalgan. Qurilmadagi qaytgan issiq gazlarni uzluksiz ravishda yo'naltirib, qozonni yana isitishga yuboradi va u yerdagi suvni isitishga olib keladi.

Ba'zan gaz turbinalari bug' kuchi qurilmalari sifatida ishlatiladi. Yonuv kamerasida 30–40% yoqilg'i so'riladi, qolgan qismi esa gaz qurilmasining gaz generatorida sarf bo'ladi.

Ba'zan esa qayta ishlangan (turbinada) gaz ta'minlovchi suvni isitish uchun foydalaniladi. Buning hisobiga yoqilg'i sarfi kamayadi va FIK butun qurilmada 44% ga yetishi mumkin.

Bizga ma'lumki, materiallarning chidamliligi chegaralangan. Issiqlikni 600°C dan orttirmaslik zarur, ammo yoqilg'i yongan joyda issiqlik 2000°C dan ortadi. Shu o'rinda bir narsa ma'lumki, shu

ikkala harorat o'rtasidagi farqni kamaytirish gaz turbina qurilmasining FIK ni ortishiga olib keladi. Bu stansiyalarda bug' turbinasi va gaz turbinalari ishlatilib, foydali ish koeffitsiyentini 40% ga orttiradi.

Shamol energetika qurilmalari. Yer sharining bir xil joylarida mahalliy shamollar kuzatiladi. Shamol energetikasi fan va texnika sohasi bo'lib, nazariy asoslarni, uslubiy vositalarni ishlab chiqaradi, mexanik, elekt, issiqlik quvvatini hosil qiladi.

Shamol ikkita asosiy bo'limdan: shamol texnikasi va shamoldan foydalanishdan iborat. O'z ichiga amaliy va nazariy masalalarni qamrab oladi. Shamol energetikasini ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladi. Shamol quvvatini Quyosh va suv quvvati qatorida abadiy quvvatlar manbaiga kiritisa bo'ladi. Shamol juda ko'p quvvat olib keladi: $(96 \cdot 10^{21} \text{ J kVt}\cdot\text{soat})$ bu degani, 2% butun quyoshli radiatsiyasini tashkil qiladi. Butun O'zbekiston bo'yicha shamol quvvatining muhtojlik 1,7 GVt ni tashkil etadi. Bir necha foiz shu quvvat ishlatilsa, mamlakatning energiyaga muhtojligini qoniqtiradi. Quvvat manbaini muhtoj yerlarga yo'naltirish lozim: shamol o'zi o'rnatilgan shamol dvigatellariga ro'para bo'ladi. Shamolning bu sharoiti og'ir hududlar uchun juda muhim.

Asosiy to'sqinlardan biri bu tezlikning o'zgarib turishidir. Shamol faqat ko'p yillik o'zgarishiga ega emas, shuningdek, sutka davomida o'z faolligini ham o'zgartirib turadi.

Shamol quvvatini odamzot ancha ilgari o'ziga qaratgan. Oxirgi yillar shamol quvvatini beruvchi qurilmalariga qiziqish uyg'otildi. Bu qiziqish ekologik muammolar tufayli paydo bo'lgan.


Ko'p mamlakatlarda eksperimental va sanoat shamol qurilmalari loyihalashtirilib qurilmoqda. Klaninger loyihasi bo'yicha bir necha gorizontalar shamol turbinalar o'rnatilishi tavsiya etilgan. Ular bitta ko'tarmada (val) ishlayadi. Ko'rinishidan bu loyiha oddiy, lekin muhandislar ancha bosh qotirishgan. Ular harakatni shamol turbinada umumiy ko'tarmaga o'tkazish yo'lini o'ylashgan. Axir vetreklarning tezligi bir xil emas.

Bu qurilma shamolning kinetik energiyasini boshqa bir turdagi energiyaga aylantirib beruvchi sistemalar to'plamiga kiradi. Shamol energetika qurilmalari (1.6- rasm):

1 — shamol agregati (shamol dvigateli — bitta agregatda bir nechta mashinalar yig'indisidan iborat);

2 — akkumulyatorli va zaxirali qurilmalar;

- 3 — ikkilantiruvchi shamol dvigateli;
- 4 — sistema;
- 5 — avtomatik boshqaruvchi va rostlovchi qurilmalar.



1.6- rasm. Shamol energetika qurilmasi.

Akkumulyator qurilmasi o‘rnida suv bilan to‘ldirilgan hajm yoki akkumulyator ko‘rinishidagi elektrokimyoviy batareya ishlatiladi; qisqa vaqt uchun elektr energiyani zaxirada ushlash uchun va shamol tezligining kamayishi hisobiga oluvchi akkumulyatordan foydalaniladi. Ikkilamchi dvigatel (ichki yonuv dvigateli) u shamolning sekinlashgan davrida, ya’ni shamolning dvigatelda tarqalishi sekinlashganda ishga tushadi. Yana bunday dvigatellar yuklamalar ulangan va elektr energiya sistemasi shamol dvigatelini qo‘shish hamda o‘chirishda (shamol tezligiga va yuklamaning hajmiga qarab) xizmat qiladi. Shamol qurilmalarining asosiy elementlarini nazorat qilish ularning ish rejimlari yoki issiqlik dvigatellari bilan parallel ishlashi tushuniladi.

Shamol qurilmalari maxsus qurilmalardan kompleks foydalanuvchi dvigatellari bilan farqlanadi. Shamol qurilmalaridagi ishlab chiqilgan elektr energiya elektrodvigatelga va undan bug‘lantiruvchi mashinaga uzatiladi.


Shamol qurilmalarining tavsiflariga qarab ular tekis aylanuvchi, tez aylanuvchi va o‘rta tezlik bilan aylanuvchi bo‘lishi mumkin. O‘rnatilgan ijobiy quvvat shamol doirasining diametri va uning aylanish tezligiga bog‘liq.

Ma’lumki, shamol qurilmalarining quvvati 100 kVt dan 1000 kVt gachaligi bilan boshqa turdagi qurilmalardan farq qiladi.

Shamol qurilmalaridan keng foydalaniladi va u chastotali shamol doirasining tezligiga teng.

Quyosh energiya stansiyalari. Quyosh energiya stansiyasi — quyosh energiyasi qurilmalari quvvatining kattaligi (ming kVt gacha) bilan farq qiladi. Quyosh elektr stansiyalari faqat issiqlik asosida va yana kombinatsion, ya'ni IEM ga o'xshash bo'ladi. Quyosh energiyasiga aylantirish bevosita fotoelektrik generatorlar yordamida yoki an'anaviy usulda, ya'ni bug'li qozon-turbina generator geleikonsentratlari yordamida amalga oshiriladi. Quyosh elektr qurilmalari o'rnatiluvchi va kosmik usulda qo'llanishi mumkin.

Yerga o'rnatiluvchi qurilmalar bir qancha katta masshtabdagi joyni egallaydi va juda qimmat, shu bilan bir qatorda ob-havoga bo'ysunuvchi hisoblanadi. Kosmik turdagi quyosh energetika qurilmalari avtonom ravishda elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida suni'y yo'ldoshlar yordamida amalga oshiriladi. Geleo qurilma — bu quyosh radiatsiyasini boshqa bir turdagi energiyaga aylantiruvchi qurilma hisoblanadi (issiqlik, bug', elektr energiya). Ular konsentratli va konsentratsiz bo'ladi. Konsentratli qurilmalarda quyosh radiatsiyasini geleo konsentratlar yordamida yuza qismga uzatadi. Ikkinchi turi esa an'anaviy ravishda yuza qismga uzatiladi (1.7- rasm).




1.7- rasm. Geoelektr stansiyasining prinsipial sxemasi.

TN—ta'minlovchi nasos; K—kondensator; G—generator; TB—turbina; O'E —o'z ehtiyoji qurilmasi; Yuk—yuklama.

Fotoelektrik qurilmalar optik nurlanish energiyasini bevosita elektr energiyaga aylantiruvchi qurilmalar hisoblanadi. Ular fotoeffekt hodisasi asosida amalga oshiriladi.

Parabolik-silindrik geleo qurilmalar $0,2-0,4 \text{ ml/m}^2$ ($2-4 \text{ kg}\times\text{s/sm}^2$) bosimli bug' olishga mo'ljallangan. (Ulardan suvni sepishda, ovqat tayyorlashda va boshqa ishlarda foydalaniladi).



1.8- rasm. Fotoelektrik qurilma.

Prinsipial sxemasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi (1.8- rasm).

Odatda, fotoelektrik generator konstruktiv ko'rinishda yupqa panel shaklida yasaladi. Unda alohida fotoelementlar joylashgan bo'ladi va shu bilan birga yarimo'tkazgichlarning eni $0,2-$

$0,3 \text{ mm}$ dan ortmaydi. FIK $10-12\%$ ga va eng mukammal turdagilarida $15-8\%$ ga yetadi.

Ularning afzallik taraflari quyidagilar: qo'zg'aluvchi qismlarining yo'qligi, oddiy ishlatish qulayligi, zaharli elementlarning tarkibida yo'qligi va atrof-muhitga zararsizligi. Kamchiliklari: juda qimmat, FIK kichik, katta quvvatli generatorlarining yo'qligi.


Kichik turdagi GES lar. O'zbekiston DAK i qoshida kichik turdagi GES larni rivojlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Hozirgi kunda bunday GES larning soni nihoyatda ortib bormoqda. Kichik turdagi GES larning afzallik taraflari juda ko'p. Aslida bu turdagi GES larning qurilishi Suv xo'jaligi vazirligi bilan kelishuv asosida quriladi. Bularda yuklamalar uncha ko'p bo'lmagan joylarda shahar yoki uzoq qishloq joylariga o'rnatish mumkin. Ularning energiya manbai suv hisoblanadi. Uncha katta bo'lmagan to'g'ondan novlar orqali katta tezlikda suv oqadi va parraklarni aylantiradi.

Bu kabi kichik GES lardan, ayniqsa, yoz oylarida ko'proq foydalaniladi.

Kichik GES larning ishlash manbai suv bo'lganligi uchun qishda yuklamalar uchun boshqa avtonom manba ishlatiladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda kichik GES lar uchun qurilgan to'g'onlar xalq xo'jaligida suvni to'g'ri yo'naltirish va rejali uzatishi ham ishlatiladi. Shunday qilib, GES lardagi gidrogeneratorlarning quvvati kichik hisoblanadi.

Geotermal quvvat. Yer osti issiqligi quyosh manbasi quvvatidan keyingi energiya manbalari yirik hisoblanadi. Geotermal elektr stansiyasi energiya manbai sifatida Yer qobig'idagi issiqlik ishlatiladi. Ma'lumki, har 30–40 metrda yerning harorati 1°C ga ortadi, ya'ni 3–4 kilometrda suv qaynaydi. 10–15 km da esa harorat $1000\text{--}1200^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tariladi. Yer qobig'idagi energiya qaytariluvchi energiya manbai turkumiga kiradi, ya'ni energiyani ishlatish natijasida yer tubidagi energiya kamayib qolmaydi. Yer yuzining ayrim joylarida yuqori haroratli suvlar yer yuziga juda yaqin joylashadi. Ular Yangi Zelandiya va Kamchatkada bor. Yangi Zelandiyada elektr energiyasining 40% ni geotermal elektr stansiyalaridan olinadi. Italiyada elektr energiyasining 6% ni geotermal elektr stansiyalaridan olinadi (1.9- rasm).



1.9- rasm. Geotermal elektr stansiyaning sxemasi.

Geotermal quvvatni olti turga bo'lish mumkin.

1. Yuqori haroratli (150°C dan ortiq) bug' bosimli. Bu quvvat elektr quvvatni ishlab chiqarishda ishlatiladi.

2. O'rta haroratli (90 dan 150°C gacha) suv va bug', asosan, issiqlikni yetkazishda ishlatilishi mumkin.

3. Past haroratli (50 dan 90°C gacha) suv. Issiqxonalarni isitishda va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi.

4. Eng past haroratli (20 dan 50°C gacha) suv. $500\text{--}1000$ m chuqurlikda isitish nasoslar orqali isitish uchun qo'llaniladi. Issiqxonalar, havzalar baliqchilikda isitish uchun qo'llaniladi.

5. Issiq quruq jinslar quvvati.

6. Vulqonlar quvvati.

Birinchi to‘rt turi gidrotermal manbalarni namoyon etadi. Ular ko‘p mamlakatlarda keng ishlatiladi. Eng qimmatli manbalardan birinchi turi, asosan, (AQSH, Meksika, Yangi Zelandiya, Filippin, Indoneziya, Yaponiya) ning vulqon va seysmik hududlarida jam bo‘lgan. Asosiy ikkinchi va to‘rtinchi manbalarining turi g‘arbiy Sibir, Qozog‘iston, O‘rta Osiyo, Shimoliy Kavkazning hududlarida jam bo‘lgan. Geotermal quvvatni elektr quvvatga o‘zgartirish uchun termodinamik davr qo‘llaniladi. Bunda ishchi kuchi bo‘lib, bug‘ xizmat qiladi. Issiqlikni ta‘minlashda suv yoki issiqlik almashuvidan yoki nasoslar orqali yuboriladi.

Eng yirigi beshinchi turning geotermal manbalari bo‘lib, ular uchun 5 km gacha chuqurlik kavlash lozim va yer osti suv sirkulyatsiyasi tashkil qilinishi kerak. Shu tipdagi elektrostansiya AQSH da qurilgan va MDH da loyihalashtirilyapti. Shuningdek, Gavayya orollarida vulqon issiqligining qo‘llanilishi ko‘zda tutilmoqda.

Okean quvvati. Kelajak energetik balansining tuzilishi hozirgiga qaraganda kengroq namoyon bo‘ladi. U geografik va iqtisodiy xususiyatlari bilan aniqlanadi. Energetik balansga dunyo okeanining manbalar quvvati, shuningdek, to‘lqinli oqim va shamol quvvati kiradi.

Quvvat o‘z ichiga oqim quvvatini, sho‘r va tuzsiz dengiz suvini aralashtirish quvvatini qamrab oladi.

Manbalarning texnik ishlatilishi quyidagi sharoitlarda bo‘lishi mumkin:

- yirik oqimlar mavjudligida;
- to‘lqinlar quvvati mavjudligida;
- dengiz suvi bilan daryo suvi o‘rtasida farqning mavjudligida.



Fransiyadagi Rane stansiyasi.

Buyuk Britaniya, Yaponiya va Shvetsiyada shu borada faol ishlar olib bormoqda. 1966- yilda Fransiyada qurilgan Rane stansiyasining quvvati 240 MVt tashkil etadi.

Biomassa quvvatining ishlatilishi. Biomassa quvvati, asosan, o'tin yoqishda ishlatiladi, qishloq xo'jalik va maishiy chiqindilar dunyo energetik balansida ko'rinarli o'rinni egallaydi (10%ga yaqin). Ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda, masalan, Janubiy Osiyoda bu 50–70% tashkil qiladi. Qishloq xo'jalik chiqindilari o'rmonlarni kesib tashlash yerning o'g'iti kamayib ketishiga olib keladi. Oxirgi paytda bir necha mamlakatlarda katta ishlar ya'ni biomassadan sun'iy yoqilg'i bilan gaz olinishi boshlab yuborilgan. Bunda texnologiyaning besh turini ajratish mumkin: tez o'sar qishloq xo'jalik o'simliklaridan spirt ishlab chiqilishi, daraxtdan spirt olinishi, qishloq xo'jalik chiqindilaridan biogaz olinishi, shahar chiqindilarini qaytadan ishlab chiqishi, biogaz olinishi. Misol tariqasida Braziliyada shakarqamishdan bir yilda 5 mln tonnagacha etilen olinadi.

Biomassani ishlab chiqarilishi va ishlatilishining o'ziga yarasha afzallik tomonlari bor. Bu qulay paytda yig'ilgan quvvatni ishlatish, ekologik bezarar, xavfsizligi, nihoyat, atmosferada yomon gazlar yig'indisini ko'paytirmaslik, bu tuzumlarning o'z muammosi bor, chunonchi, boshqa tomon variantlarining konkurensiyasi, yer maydonlariga ehtiyoji — yer, suv va o'g'itga ehtiyoj. Biomassa ishlatilishining dasturlari Avstraliya, Braziliya, Kanada, Xitoy, Daniya, Fransiya, Irlandiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya mamlakatlarida bor.


Magnito-gidrodinamik elektr stansiyalari. Zamonaviy elektr energiya tizimida Faradeyning elektromagnit induksiya qonuni muhim ahamiyatga ega. EYUK magnit oqimda o'tkazuvchi harakatlanuvchi EYUK induksiyanishi qattiq, suyuq va gazsimon o'tkazuvchilarda kechadi.

Shu nuqtai nazardan magnit oqimi bilan tok o'tkazuvchi suyuqliklarning yoki gazlarning bir-biri bilan ta'sirlashuvi magnito-gidrodinamika deyiladi.

Energetikaning asosiy fizik-texnik masalalaridan biri magnito-gidrodinamik generatorlarni yaratish, shu bilan birga issiqlik energetikasini elektr energiyaga aylantirishdir. Amaliyotda bu turdagi energiyalarni hosil qilish atom fizikasi, plazma fizikasi va

metallurgiyaning keng sanoat masshtablarida ishlatilishini taqozo etadi. Issiqlik energetikasini bevosita elektr energiyasiga aylantirish yoqilg'i resurslarini samarali ishlatishga imkon beradi. An'anaviy bug' kuchi jarayoni asosida issiqlik energiyasini olishda bug'ning harorati, uning ichki energiyasi va bosimi asosiy rol o'ynaydi.

Undan so'ng bug' turbinalarida bug' energiyasi mexanik energiyaga, so'ngra elektr generatorlari yordamida elektr energiyaga aylantiriladi. Ko'p bosqichli bu jarayonda elektr energiyasini hosil qilish bir qancha isroflar butun sikl davomida samaradorligining pasayishiga olib keladi (1.10- rasm).



1.10- rasm. Energiya hosil qilish chizmasi:


a — bug' kuchi yordamida; b — magnitogidrodinamik usulda.

Magnitogidrodinamik jarayonda energiyani hosil qilish bosqichi bir qancha qisqa. Zamonaviy bug' generatorlarida harorat 3000°C bo'ladi, ammo bug' turbinasining kuraklari issiqlik chidamliligi 750°C da normal ishlaydi. Agar harorat 750°C dan ortsa, uning FIK ni 0,6 dan kamaytiradi.

Amaliyotda bug' kuchi jarayonining mukammal bo'lmaganligi sababli FIK ni 0,4 ga ko'tarish ham qiyin bo'ladi. MGD generatorlarining statik shartlari bo'yicha haroratni $2700\text{--}3000^{\circ}\text{C}$ da ishlatish mumkin bo'lgan materiallarni qo'llashga imkon yaratadi. Bu esa energiya hosil qilishda va FIK ni oshirishda keng imkoniyat yaratadi.

MGD generatorlarida o'tkazgich tarkib sifatida ionlashgan gazlar ishlatiladi. Bu gazlarni o'tkazuvchanlik xususiyatini ushlab turish uchun haroratini 2000°C dan kamaytirmaslik kerak. Bu shart MGD generatorlarini 3000°C dan 300°K gacha bo'lgan haroratda keng foydalanish imkonini yaratadi. Shuning uchun

MGD generatorlarida foydalanilgan issiq gazni bug‘ turbinalarida qayta foydalanish maqsadga muvofiq. Elektr energiyani hosil qilishda MGD generatorlari bilan birgalikda bug‘ turbinalaridan foydalanish butun qurilmaning FIK ni 50–60% orttirishiga va bir yil davomida 10 mln tonnalab yoqilg‘i resurslarini tejashga imkon beradi. Elektr energiyani keng masshtablarda hosil qilish stasionar MGD qurilmalariga mos. MGD generatorlarida FIK ni orttirishi energiya tan narxini va stansiya qurilmalariga ketgan mablag‘larni kamaytiradi (1.11- rasm).




1.11- rasm. MGD generatorining ishlash prinsipi.

1.12- rasmdagi metall plastinkalar orasidagi kuchli magnit oqimidan ionlashgan gaz o‘tkaziladi. Bu gazda harakatlanuvchi qismlarning kinetik energiyasi mavjud bo‘ladi. Shu o‘rinda elektromagnit induksiya qonuniga ko‘ra, ichki zanjirda generator kanallari ichidagi elektrodlar orasidagi tok ta‘sirida EYUK hosil bo‘ladi.

Magnit oqimi va plazma toklarining elektrodinamik ta‘siridan ionlashgan plazma gaz oqimi to‘xtatiladi. Bug‘ va gaz turbinalarining ishchi kuraklarida va ularning qismlarida ta‘sir qilayotgan kuchlar va tormozlovchi kuchlarning ta‘sirini ko‘rish mumkin.

Elektr energiyani hosil qilish bu — tormozlovchi kuchlarni yengish demakdir. Agar biror gazni 3000°C gacha qizitib, uning ichki energiyasini kam oshirib, elektr o‘tkazuvchi tarkibga aylantirish MGD generatorlarini ishchi kanallarida gazning kengayishidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqlik energiyasiga aylantiriladi. Bug‘ kuch qurilmali MGD generatori bilan bug‘ kuchi qurilmasining prinsipial chizmasida ko‘rsatilganidek, yonish ka-



1.12- rasm. Bug' kuchi qurilmasining MGD generatori bilan birga joylashgan prinsipial chizmasi:

- 1 – yonish kamerasi; 2 – issiqlik almashtirgich; 3 – MGD generatori;
 4 – elektromagnit chulg'ami; 5 – bug' generatori; 6 – turbina;
 7 – generator; 8 – kondensator; 9 – nasos.

merasida organik yoqilg'ini yondiradi, bunda plazma ko'rinishidagi mahsulot olinadi, bir necha qo'shimchalar qo'shilishi natijasida MGD generatorining kengayuvchi kanallariga yo'naltiradi. Kuchli magnit maydon elektromagnit quvvat yordamida hosil qilinadi. Generator kanallaridagi gaz harorati 2000°C — 2800°C dan kam bo'lmasligi kerak. MGD generatorlaridan chiqayotgan gazlarning minimal harorati 2000°C dan kam bo'lgan gazlarda elektr o'tkazuvchanlikning kamayishi seziladi, bu esa amalda magnito-gidrodinamik ta'sirning magnit oqimi bilan ta'sirlashuvini yo'qotadi.

MGD generatorlaridan chiqqan gaz avval yonish kamerasiga kelayotgan yoqilg'ini va havoni qizitishga ishlatiladi, u esa yonish jarayonining samaradorligiga xizmat qiladi. Keyin bug' kuchi qurilmasidagi issiqlik bug' ko'rinishiga keltirilib, kerakli kattaliklarga tarqatiladi. MGD generatorlaridan chiqayotgan gazlar taxminan 2000°C bo'ladi. Zamonaviy issiqlik almashtirgichlar baxtga qarshi 800°C dan kichik bo'lgan rejimda ishlaydi. Bu esa gaz bug'ini sovitishda bir necha isroflarga yo'l qo'yiladi. MGD generatorlarini yaratishning qiyinchiligi shundaki, ularda yuqori mustahkamlikka ega bo'ladi. Ularning statik shartlariga qaramasdan bu materiallarga katta talab qo'yiladi va ular har xil yuqori (2500 – 2800°C) bo'lgan muhitlarda uzoq ishlashi kerak. Raketa

texnikasida shunday muhitlarda bu kabi materiallarning qoʻllanishi ham mumkin, biroq ular davomiy vaqt bir necha minut ishlashi ham mumkin. Sanoat energetika qurilmalarida ularning ishlashi kamida bir necha oydan ortishi kerak.

OʻZ-OʻZINI TEKSHIRISH SAVOLLARI

1. *Kuchlanishning standart qiymatlari nima?*
2. *Energetika va elektr energetikasi tizimlarining farqini tushuntiring.*
3. *Sanoat korxonalarining asosiy manbalarini sanab bering.*
4. *Energiyaning qanday turlari mavjud?*
5. *Anʼanaviy elektr energiya manbalariga qaysi stansiyalar kiradi?*
6. *Noanʼanaviy elektr energiya manbalariga qaysi stansiyalar kiradi?*
7. *GES larning foydali ish koeffitsiyenti nechaga teng?*
8. *IES larning kamchiliklari nimadan iborat?*
9. *IEM ga taʼrif bering.*
10. *Shamol energiya qurilmasining tuzilishini tushuntirib bering.*
11. *Quyosh elektr stansiyalarining ahamiyatini tushuntirib bering.*
12. *Geotermal elektr stansiyalarning energiya manbai sifatida nima ishlatiladi?*
13. *Magnitogidrodinamik elektr stansiyalarning avzalliklarini aytib bering.*

II BOB. SANOAT KORXONALARI VA TURAR JOY BINOLARINING ELEKTR YUKLAMALARI

2.1. XALQ XO‘JALIGINING ASOSIY ELEKTR ISTE‘MOLCHILARI. TOG‘ QAZIB OLIISH SANOATI

Ko‘mir shaxtalari. Ko‘mirni yer ostidan qazib olish va transportirovka qiluvchi sanoat elektr motorlarining quvvati 13 kVt dan 1250÷8800 kVt oralig‘ida bo‘ladi. Ko‘p hollarda 380 V kuchlanish 600 V ga almashtirilgan. 250 kVt va undan katta quvvatli motorlar uchun 6–10 kV kuchlanish qo‘llaniladi. Ishlash tartibi takroriy qisqa muddatda ishlovchi rejim. Ishlash sharoiti og‘ir. Elektr ta‘minoti ishonchliligi bo‘yicha 1- toifaga bosh ventilyator, asosiy qozonxona, yoritish, suv ta‘minoti va boshqalar kiradi.

Ochiq qazib olinadigan karyerlar. Elektr energiyaning kar‘yerlardagi asosiy iste‘molchilari ekskavatorlardir. ESH – 14/65 ning quvvati 3516 kVt ni, ESH – 80/100 quvvati esa 70 MVt ni tashkil etadi. Elektr energiya ekskavatorlarni egiluvchan 6–10 kV kuchlanishli kabellar orqali beriladi. Ekskavatorlarning ish tartibi keskin o‘zgaruvchan bo‘ladi. Elektr energiya ishonchliligi bo‘yicha ikkinchi toifaga tegishlidir.

Parmalash qurilmalari. Neft va gazni qazib olish uchun burg‘ilashda parmani aylanishi yer ustida joylashgan elektr motorlar yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri quduqlardagi parmaning ustiga joylashgan elektr burg‘ilash motorlar orqali amalga oshiriladi. Burg‘ilanish qurilmalari asosiy mexanizmlarining quvvati 125÷2000 kVt, burg‘ilash nasoslarniki 225÷1480 kVt ni tashkil etadi. Burg‘ilash qurilmalar motorlarning umumiy quvvatlari 10 MVt ga yetadi, kuchlanishi esa 660 V.

Tog‘-boyitish kombinatlari va aglomeratsion fabrikalar. Qora va rangli metallurgiyada rudani boyitish va aglomeratsiyalash uchun ko‘p motorli, yoritkichli flotatsion mashinalar ishlatiladi – har bir motorning quvvati 20 kVt gacha; ruda maydalagichning quvvati 800 kVt gacha; sharli tegirmonlarning quvvati 4000 kVt gacha; 250÷900 kVt quvvatli konveyerlar va boshqalar.

Zamonaviy tog'-boyitish kombinatlarida o'rnatilgan quvvati 500 kVt gacha bo'lgan yirik elektr energiya iste'molchilariga kiradi. Quvvatiga bog'liq ravishda motorlarda 380, 6000 va 10000 V kuchlanish qo'llaniladi. Birinchi toifadagi iste'molchilarga hovuzlarning aylanma parrak yuritkichlari, kuydirish sexidagi aylanma pechlar, aglomeratsion mashinalar kiradi. Boyitish va aglomeratsion fabrikalarning texnologik jarayoni turg'un va uzluksiz.

Koksokimyo sexi. Bunday sexda toshko'mir koksga aylantiriladi. Dozirovka stollari, iste'molchilarining quvvati 4÷10 kVt gacha yetadi. Ta'minlovchi kuchlanish 380, 6000÷10000 V. Texnologik jarayon uzluksiz. Ko'pchilik elektr iste'molchilari davomiy yuklamali, bir qismi esa takrorlanuvchi qisqa vaqtli tartibda ishlaydi. Iste'molchilar 1 va 2 toifali. Sexining umumiy quvvati 15÷40 MVt ni tashkil etadi.

Domna pechlarining qurilmalari. Ularda cho'yan eritiladi. Iste'mol quvvati 0,4 dan 1500 kVt gacha. Pech mexanizmlarining umumiy quvvati 10÷25 MVt gacha yetadi. Kuchlanishi 360 V va 6÷10 kV. Birinchi toifaga suv bilan ta'minlovchi nasoslar, havo, gazdan tozalovchi qurilmalar va boshqalar kiradi. Ulardan boshqalari esa ikkinchi toifaga tegishli.

Prokat sexlarining uskunalari. Ikkita asosiy guruhga bo'lingan iste'molchilari bor.

Mashinasozlik va metallarni qayta ishlash. Metallarni qirquvchi yirik stanoklarning bosh yuritmalarining quvvati 300 kVt atrofida bo'lganda, ularning elektr yuritmalarining umumiy quvvati 1000 kVt dan ortadi. Umumiy mashinasozlik stanoklarining o'rtacha quvvati 5÷10 kVt atrofida o'zgaradi, kuchlanishi 380 V, $f=50$ Gs. Og'ir mashinasozlik sexlarida 660 V kuchlanish qabul qilish maqsadga muvofiq.

Ishlash tartibi har xil. Elektr ta'minotidagi ishonchlilik darajasi bo'yicha iste'molchilar ikkinchi toifaga tegishli.

Temirni shtampalovchi mashinalar va presslar. Ishlash sharoitiga qarab, krivoship presslarining quvvati 500 kVt gacha yetishi mumkin. Hidropresslar, nasos stansiyasining motorlari quvvati 250÷1500 kVt ni tashkil etib, nasos stansiyasining umumiy quvvati esa 10÷12 MVt va undan ortiq bo'lishi mumkin. Bu uskunalarni o'zgaruvchan tok yuritmasi $f = 50$ Gs va $U = 380, 660, 6000,$

10000 V ishlaydi. Ishonchlilik darajasi bo'yicha asosan ikkinchi toifaga tegishlidir.

Shtampalovchi mashinalar va presslar ishlash holati bu salt ishlash keskin ko'payuvchi bo'ladi

Elektr asbob. Nominal quvvati 0,2 dan 2 kVt gacha. Kuchlanish 12÷36 V. Elektr asbobni ishlatish uchun yuqori chastotadan foydalaniladi (200 Gs).

Ishlash tartibi qisqa vaqtli va qaytariluvchi qisqa vaqtli, ikkinchi toifaga tegishli bo'ladi.

Bu guruhdagi iste'molchilarga turli xil qo'l mexanizatsiyalangan asboblari: drellar, shilifovalkalar, arralar, gayka buraydigan kalitlar kiradi. Ayrim asboblarning nominal quvvati uncha katta emas 0,21 dan 1,5÷20 kVt gacha. Elektr asbob bilan ishlash juda xavfli. Shuning uchun ishchi kuchlanish 36 V dan ortmaydi. O'ta xavfli xonalarda esa 12 V dan ortmaydi. Ish rejimi qisqa vaqtli va takroriy qisqa vaqtli. Ishonchliligi darajasi bo'yicha ikkinchi toifaga tegishli.

Kimyo sanoati. Kimyo sanoatiga azot ishlab chiqarish sanoati, soda, oltinugurt kislotasi, superfosfat, karbomid, kalsiy xlor, rezinali shina, sintetik spirt, sintetik materiallar, plastmassa, sun'iy tola ishlab chiqarishlar kiradi.

Kimyo sanoatining elektr iste'molchilari quvvati, ishlash rejimi, ta'minlanadigan kuchlanishning qiymati va chastotasi bo'yicha juda ham turlichadir.

Asosiy ishlab chiqarish mexanizmlari – aralashtirgichlar, sentrifugal, filtr presslar 1÷5,5 kVt quvvatga ega. Markazdan qochma nasoslar 6÷1500 kVt li, porshenli kompressorlar 50÷6300 kVt li va 700÷12000 kVt li turbokompressorlardir. Asosan, motorlarning ish rejimi uzluksiz. Lekin bir smena mobaynida 10÷15 minut ishlovchi yuritkichlar mavjud. Kimyo sanoatida asosiy iste'molchilarning kattagina qismi birinchi toifa iste'molchilarga kiradi. Texnologik jarayon va asosiy ishlab chiqarish iste'molchilari barqaror. Kimyo kombinatlari bir necha yuz megovattli maksimum yuklamaga ega bo'lgan elektr energiyani yirik iste'molchilardir.

Neftni qayta ishlash sanoati (NQIS). NQIS da mexanizmlarning quvvati dozirovka qiluvchi nasoslar uchun 0,4÷3,5 kVt va turbinali kompressorlar uchun 500÷12000 kVt oraliqda bo'ladi.

NQIS ni 200 kVt gacha quvvatli dvigatellari uchun 380 V va undan katta quvvatlilarga 6÷10 kV kuchlanish qo‘llaniladi. Yuqori kuchlanishli yuklamalar umumiy yuklamaning 50% ni tashkil etadi.

Ishlash tartibi asosan doimiy. Birinchi toifali iste‘molchilari ham bor.

Tekstil va yengil sanoat. Tekstil va yengil sanoatining elektr iste‘molchilari, asosan, juda katta miqdordagi, kichik quvvatli elektr iste‘molchilari bilan xarakterlanadi. Paxtani ip qiluvchi uskunalarning quvvati $P = 0,6\div 30$ kVt, motorni bo‘yovchi uskunalarniki $P = 0,25\div 150$ kVt, junni tituvchi uskunalarniki $P = 0,27\div 44$ kVt va boshqalar.

Yuqori chastotada ishlovchi, katta tezlikdagi mexanizmlar keng ko‘lamda ishlatiladi. Ishlash tartibi, asosan, uzluksiz. Ishonchlilik darajasi bo‘yicha ikkinchi toifa. Bo‘yash fabrikasi birinchi toifali iste‘molchi hisoblanadi.

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoati. Bunga sement, oyna, temir-beton buyumlari, g‘isht va boshqa ishlab chiqaruvchi zavodlar kiradi. Asosiy iste‘molchilarning quvvati: aralashtiruvchilar uchun 55 kVt gacha, sement tegirmonlariniki 1800 kVt gacha, ventilyatorlar, maydalovchi, kompressorlarniki 300÷1600 kVt oraliqda bo‘ladi.

Iste‘molchilarning kuchlanishi 380 V. Katta quvvatli yuritmalarniki 6÷10 kV.

Ko‘pchilik mexanizmlar doimiy tartibda ishlaydi. Birinchi toifali iste‘molchilar: sement zavodlari, pechlarining uzatmalari, kompressor, ventilyatorlar, nasoslar, oyna tayyorlash mexanizmlari.

Elektrotermik qurilmalar (bevosita ta‘sir qilmaydigan va to‘g‘ri ta‘sir qiluvchi elektr pechlar). Bilvosita ta‘sir qiladigan qarshilik elektr pechlarida mahsulotni qizdirish, qizuvchi elementdan tok o‘tish hisobidan, bevosita ta‘sir qiluvchi pechlarida esa ishlov berilayotgan buyumdan tok o‘tishi hisobiga amalga oshiriladi. Ushbu pechlar issiqlik bilan ishlov berishda, quritishda, xalq xo‘jaligining har xil yo‘nalishlarida qo‘llaniladi.

Elektr pechlarining quvvati 10 MVt gacha yetadi. Ta‘minlovchi kuchlanish 220÷380 V. Ba‘zi hollarda 60÷100 V kuchlanish ishlatiladi. $f = 50$ Gs. Ishlash rejimi ko‘p hollarda uzluksiz,

ammo qabul qilingan texnologiyaga bog'liq ravishda ba'zi hollarda takroriy qisqa muddatda ishlovchi bo'ladi. Ta'minlashdagi ishonchlilik darajasi bo'yicha ikkinchi toifali.

Yoyli elektr pechlar. Yoyli elektr pechlari qizdirish usuliga ko'ra bevosita va bilvosita ta'sir qiladigan turlarga bo'linadi. Bevosita ta'sir qiluvchi elektr pechlarida qizdirish va erish yonayotgan elektrod hamda erishi kerak bo'lgan metall orasidagi elektr yoyi tufayli ajralgan issiqlikka asosan, bilvosita ta'sir qiladigan pechlarda esa maxsus elektrodlar orasida yoy tufayli ajralgan issiqlikka asoslanadi.

Bevosita ta'sir etuvchi elektr pechlarining xarakterlisi – yoyi po'lat eritish pechlari. Pechlar 45 mVA gacha ishlab chiqiladi. Kuchlanish 6÷110 kV, $\cos \varphi = 0,85\div 0,9$ ikkinchi toifali.

Metallni eritish jarayonida qisqa tutashuv (q.t) bo'ladi. Q.t.toki nominal qiymatidan 2,5÷3 marta ortadi. Yoyning ish kuchlanishi 110÷500 V. Yoy toki 100 kA va undan yuqori bo'ladi.

Bilvosita ta'sirli yoyli elektr pechlari mis va uning qotishmalarini eritishda ishlatiladi. Pechlarning quvvati nisbatan katta emas (500 kVA gacha). Ta'minlovchi kuchlanish 6÷10 kV.

Induksion qizdiruvchi pechlar va qurilmalar. Metallni qizdirish va eritish undan induksion tok o'tishi hisobiga bo'ladi. Eritish pechlari po'lat o'zakli va o'zaksiz qilib tayyorlanadi. O'zakli pechlar (каналние) rangli metallar va ularni qorishmalarini eritishda ishlatiladi. Chastota 50 Gs. Kuchlanish quvvatga qarab 380 V va undan yuqori. 2000 kVA gacha quvvatli bir, ikki va uch fvzali qilib ishlab chiqariladi, $\cos \varphi = 0,2\div 0,8$ oraliqda bo'ladi.

O'zaksiz pechlar (tigel) yuqori sifatli po'latlarni eritish uchun ishlatiladi. Ta'minlash 50 Gs li va 380 V li yuqori chastotali induksion pechlarni ta'minoti 500÷10000 Gs li tiristorli o'zgartiruvchi manbadan amalga oshiriladi.

Pechlar 4500 kVA quvvatgacha, $\cos \varphi = 0,4\div 0,66$ oralig'ida ishlab chiqariladi. Hamma pechlar ikkinchi toifaga tegishlidir.

Elektr payvandlash qurilmalari. Payvandlash texnik jihatdan yoyli va kontaktliga, ishlatilish sharoiti bo'yicha qo'lda va avtomatik payvandlagichlarga bo'linadi. O'zgarmas tok elektr payvandlash qurilmalari o'zgaruvchan tok motori hamda o'zgarmas tok generatoridan tashkil topgan. Nominal ish rejimida $\cos \varphi = 0,7\div 0,8$, salt ishlaganda $\cos \varphi = 0,4$.

O'zgaruvchan tok elektr payvandlash qurilmalari 50 Gs chastotada ishlaydi va payvandlashga mo'ljallangan payvandlash transformatori hamda kontaktli payvandlashga mo'ljallangan payvandlash apparatlaridan tashkil topgan.

Ishlash rejimi takroriy qisqa muddatli $\cos \varphi = 0,3-0,35$, $U=220-380$ V ikkinchi toifaga tegishli. Kontaktli payvandlash bir fazali transformator orqali bajariladi, ikkilamchi chulg'amidagi kuchlanish 2–25 V oralig'ida, tok 300 kA gacha bo'ladi.

Elektroliz qurilmalari rangli metallurgiyada, kimyo sanoatida, mashinasozlik korxonalarida qora metallurgiya sanoatida keng ishlatiladi. Ular juda ko'p energiya iste'mol qiladi. Masalan: litiy ishlab chiqarish uchun solishtirma sarf 66000 (kVt · soat) tashkil etadi.

Elektroliz sexlarining o'rnatilgan quvvati o'nlab mVt ga, zavodlarniki esa 1000 mVt ga yetadi. Ishlash rejimi uzluksiz. Elektroliz vannalari birinchi toifaga tegishli.

Elektr yoritish qurilmalari. Elektr yoritkichlari bir fazali yuklama bo'lib, ularni fazalarga tekis taqsimlash mumkin. Yuklamalar qiymati sutka, yil davomida o'zgarib turadi. Chastotasi 50 Gs, cho'g'lanish lampalari uchun $\cos \varphi = 1$, gazrazryadli lampalar uchun $\cos \varphi = 0,6$. Ta'minlashdagi uzilishlar ba'zi bir ishlab chiqarish uchun ruhsat etilmaydi. Kuchlanish 6 V dan 220 V gacha bo'ladi.

2.2. ELEKTR ENERGIYA ISTE'MOLCHILARINI GURUHLASH

Elektr qurilmalari deganda, elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi, transformatsiyalovchi, uzatuvchi, tarqatuvchi, boshqa turdagi energiyaga aylantiruvchi, tok turi, chastotasi va fazalar sonini o'zgartiruvchi mashinalar, apparatlar, liniyalar va qo'shimcha jihozlar tushuniladi.

Elektr qurilmalari tokning turi (o'zgaruvchan va o'zgarmas), kuchlanishi (1 kV gacha va 1 kV dan yuqori) hamda ishlatilishi bo'yicha har xil guruhlarga bo'linadi. Ishlatilishi bo'yicha elektr qurilmalari quyidagilarga bo'linadi: elektr energiyasini ishlab chiqaruvchilar — elektr generatorlari; o'zgartiruvchi va taqsimlovchilar — transformator podstansiyalari, o'zgaruvchan tokni o'zgar-

mas tokka yoki boshqa chastota tokka aylantiruvchi uskunalari – elektr tarmoqlari; elektr iste'molchilar – elektr energiyasini boshqa turdagi energiyaga aylantiruvchi agregatlar, mexanizmlar, qurilmalar.

Elektr qurilmalarining neytral nuqtalari holatiga qarab quyidagilarga bo'linadi: 1) kuchlanishi 1 kV gacha bo'lib, neytrali to'g'ridan-to'g'ri zaminlangan qurilmalar; 2) kuchlanishi 1 kV gacha bo'lib, neytrali izolyatsiyalangan qurilmalar; 3) kuchlanishi 1 kV dan yuqori, biror liniya yerga ulanganda zaminga o'tadigan toki kichik ($I_3 \leq 500A$) bo'lgan, neytrali izolyatsiyalangan qurilmalar; 4) kuchlanishi 1 kV dan yuqori, bir fazali yerga ulanish sodir bo'lganda zaminga o'tadigan toki katta ($I_3 > 500A$) bo'lgan, neytrali to'g'ridan-to'g'ri zaminlangan elektr qurilmalar; 5) kuchlanishi kichik (42 V gacha) elektr qurilmalari.

Elektr ta'minotining ishonchliligiga qo'yiladigan talablarga qarab elektr iste'molchilar quyidagi uchta toifaga bo'linadi.

I toifa elektr iste'molchilari – bunday elektr iste'molchilarda elektr ta'minotidagi uzilish kishilarning hayotini xavf ostiga qo'yadi, xalq xo'jaligi uchun katta zarar keltiradi, qimmatli qurilmalarning buzilishi va ko'plab xomashyoning chiqitga chiqishiga, murakkab texnologik jarayonning uzoq vaqtga izdan chiqishiga, maishiy xo'jaligining eng muhim jabhalarida ishning buzilishiga olib keladi. I toifali elektr qabul qiluvchilar elektr energiyasini kamida ikkita mustaqil ta'minlash manbalaridan olishlari kerak va ularning elektr ta'minotidagi uzilish vaqti zaxiradagi manbani avtomatik ravishda ulashga ketadigan vaqt bilan belgilanadi.

Mustaqil manba sifatida ikki elektr stansiyasi yoki podstansiyalarning taqsimlash qurilmalari ishlatilishi mumkin.

Ko'p korxonalarda I toifali elektr iste'molchilarning solishtirma miqdori katta bo'lmaydi. Neft kimyosi, sintetik kauchuk va metallurgiya korxonalarida I toifali elektr qabul qiluvchilarning miqdori 70÷80 % ni tashkil etadi.

I toifali iste'molchilardan ayrimlari alohida guruh iste'molchilari turkumiga kiradi. Ularning to'xtovsiz ishlashi ta'minlansa, kishilar hayoti xavf ostida qolmaydi, portlashlar, yong'inlar sodir bo'lmaydi va qimmatbaho qurilmalar ishdan chiqmaydi. Bularga, masalan, kompressorlar, ventilyatorlar, nasoslar, yer osti kon-

laridan yuqoriga ko‘taruvchi uskunalarning yuritmalari va avariya holatlarida ishlaydigan yoritish qurilmalari kiradi. Bunday alohida guruh iste‘molchilari uchun uchinchi qo‘shimcha mustaqil ta‘minlash manbai bo‘lishi kerak.

II toifali elektr iste‘molchilari – bunday elektr iste‘molchilarning elektr ta‘minotidagi uzilish ko‘plab mahsulotlarni ishlab chiqarilmasligiga, ishchilarning ommaviy turib qolishiga, mexanizmlar va korxonalar transportining ishlamasligiga, shahar va qishloq aholisi ko‘p qismining normal faoliyati buzilishiga olib keladi. Bu toifadagi iste‘molchilar korxonalarda eng ko‘p qismni tashkil qiladi. Ularning elektr ta‘minotini ikkita mustaqil elektr manbalar orqali bajarilishi tavsiya etiladi. II toifali iste‘molchilarda elektr ta‘minotidagi uzilish vaqti zaxiradagi manbani navbatchi shaxs yoki maxsus brigada faoliyatining ulashga ketadigan vaqti bilan belgilanadi.

III toifali elektr iste‘molchilariga yuqorida tanishilgan I va II toifali iste‘molchilar turkumiga kirmaydigan barcha elektr qabul qiluvchilar kiradi. Ularning elektr ta‘minoti bitta manba orqali bajarilishi mumkin. III toifali iste‘molchilar uchun elektr ta‘minotidagi uzilish 24 soatdan ortmasligi kerak. Tokning chastotasiga qarab iste‘molchilar 50 Gs chastotali, yuqori (10 kGs gacha), o‘ta yuqori (10 kGs dan katta) va past chastotali manbalarda ishlaydigan iste‘molchilarga bo‘linadi. Korxonalarda, asosan, 50 Gs chastotali iste‘molchilar ishlatiladi. Yuqori va o‘ta yuqori chastotali qurilmalar metallarni eritishda, toblash va qoliplashda keng ishlatiladi.

Bunday manbalarni hosil qilish uchun tiristorli, ionli yoki lampali o‘zgartkichlar ishlatiladi. Past chastotali iste‘molchilar

turkumiga transportda ($16\frac{2}{3}$ Gs), suyultirilgan metallni aralash-tirishda (25 Gs gacha) ishlatiladigan kollektorli elektr yuritkichlar kiradi. Past chastotali elektr iste‘molchilar sanoat korxonalarida keng tarqalmagan.

Sanoat korxonalaridagi elektr iste‘molchilarining ish rejimlariga qarab uch xarakterli guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. **O‘zgarmas yoki deyarli o‘zgarmas yuklama bilan ishlaydigan iste‘molchilar.** Bunday rejimda ishlaydigan qurilmalarda uzoq

vaqt ishlash davomida ular qismlarining harorati ruxsat etilganidan ortmaydi. Ventilyatorlar, nasoslar, kompressorlarning elektr yuritkichlari bu holatda ishlaydi.

2. **Qisqa muddatda ishlaydigan qurilmalar.** Bunday holatda mashina yoki apparatlarning ishlash vaqti kichik bo‘lib, ish vaqtida ular qismlarining harorati mo‘ljallangan turg‘un qizish darajasiga yetmaydi. Tanaffus vaqti esa uzoq bo‘lib, mashina yoki apparatlar qismlarining harorati atrof-muhit haroratiga tenglashadi. Misol tariqasida bunday iste‘molchilarga metallarga ishlov beruvchi stanoklarning yordamchi mexanizmlari yuritmalarini keltirish mumkin.

3. **Takroriy qisqa muddatda ishlovchi iste‘molchilar.** Bunday qurilmalarda ishlash vaqti qisqa to‘xtash vaqti bilan almashinib turadi. Takrorlanuvchi qisqa muddatda ishlash rejimi xususiyatini baholash uchun nisbiy ulanish davomiyligi (продолжительность включения — ПВ%) $UD\%$ kattaligidan foydalaniladi:

$$UD\% = \frac{t_{ish}}{t_{ish} + t_0} \cdot 100\% = \frac{t_{ish}}{t_s} \cdot 100\%. \quad (2.1)$$

Bunda: t_{ish} — iste‘molchining yuk bilan ishlash davomiyligi;
 t_0 — iste‘molchining elektr tarmog‘idan ajratilgan holati davomiyligi;

$t_s = t_{ish} + t_0$ — takrorlanuvchi sikl davomiyligi ($t_s \leq 10$ minut bo‘lishi kerak).

Elektrotexnika sanoatida ulanish davomiyligi (UD_i) 15;25;40 va 60% bo‘lgan elektr mashinalari ishlab chiqarilmoqda. Takrorlanuvchi qisqa yuklamali elektr yuritkichlarning pasportida ko‘rsatilgan quvvatni o‘zgarmas yuklamali rejimdagi ($UD = 100\%$) quvvatga quyidagi munosabat orqali keltiriladi:

$$P_n = P_{pasp} \sqrt{UD_{pasp}}. \quad (2.2)$$

Bunda: P_n — nominal davomli quvvat;

P_{pasp} — elektr iste‘molchining pasportida keltirilgan quvvat;

UD_{pasp} — pasportda ko‘rsatilgan nisbiy ulanish davomiyligi;

Payvandlash mashinalari, elektr pechlarining transformatorlari uchun quyidagi formula o‘rinli:

$$P_n = S_{pasp} \sqrt{UD_{pasp}} \cos \varphi_{pasp}. \quad (2.3)$$

Bunda: S_{pasp} , UD_{pasp} , $\cos \varphi$ — qurilmaning pasportda berilgan to'la quvvati, nisbiy ulanish davomiyligi va quvvat koeffitsiyenti.

Misol. Kran elektr yuritkichlarining $UD = 1$ ga keltirilgan quvvatini toping. Kran yuritkichlarining $UD = 25\%$ dagi parametrlari quyidagicha:

- a) asosiy ko'targich yuritkichining quvvati 22 kVt;
- b) ko'prikn harakatlantiruvchi yuritkichning quvvati 16 kVt;
- d) aravacha harakatlantiruvchi yuritkichning quvvati 3,5 kVt

Yechish. Elektr iste'molchilarning $UD = 1$ ga keltirilgan umumiy quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$$P_{\text{um}} = (22 + 16 + 3,5)\sqrt{0,25} = 20,75 \text{ kVt}.$$

Javob: 20,75 kVt.

2.3. ATROF-MUHITGA QARAB XONALARNI GURUHLASH

1. Agar ishlab chiqarish xonasi elektr tarmog'iga ziyon ko'rsatmasa va elektr tarmog'i salbiy hodisa namoyon qilmasa, bu xona *normal xona* deb ataladi.

2. O'tkazgich materiallariga va izolyatsiyaga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhitli xonalar korroziya bo'yicha xavfli xonalar guruhiga kiradi (koksokimyo, elektroliz, cho'yan erituvchi, oltin-gugurt kislotasi va boshqalar).

3. Yong'in va portlashdan xavfli xonalar shunday muhitli xonalarki, ularda elektr tarmoq yoki qurilmadagi o'tkazgichning qizish yoki uchqunning paydo bo'lishi yong'in yoki portlashga olib kelishi mumkin (benzin, kerosin yoki vodorod bug'lari, yog'och changlari va boshqa yonuvchi moddali xonalar).

4. Bir vaqtning o'zida ham korroziya, ham yong'in, ham portlash bo'yicha xavfli muhitli xonalar bo'lishi mumkin (benzin bug'li xona).

Yong'indan xavfli xonalar to'rt sinfga bo'linadi:

P I—45°C dan katta haroratda alanganuvchi bug'ga ega yonuvchan suyuqlik saqlanadigan yoki ishlatiladigan xonalar (moy omborlari, transformator nimstansiyalarining moy xo'jaligi).

P II — muallaq holda yonuvchi chang yoki tola ajralib chiqadigan xonalar (yog'ochni qayta ishlovchi sexlar, oltin-gugurt ombori va boshqalar).

P II_a — muallaq holda qattiq yoki tolasimon moddalar saqlanadigan xonalar (qog'oz, yog'och, gazmollar ombori).

P III — yonuvchi moddalar saqlanadigan yoki qo'llaniladigan tashqi qurilmalar (ko'mir, torf, yog'och va boshqa mahsulotlarning ochiq ombori).

Texnologik jarayon shartlariga ko'ra, portlashga xavfli aralashmalarning hosil bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar va tashqi qurilmalar portlashga xavfli guruhga kiradi.

Portlashga xavfli xonalar 2 sinfga bo'lnadi:

V — I portlovchi gazli;

V — II portlovchi chang va tolalari bor xonalar.

Xavfli IXT yuzaga kelish darajasiga qarab sinflar a, b, g harflar bilan belgilanadi.

Eng katta xavflisi bu V—I sinf bo'lib, portlash xavfi bor qo'shilmalar faqat avariya holatlaridagina emas, balki normal hollarda ham yuzaga kelishi mumkin.

V I_a — portlash xavfi bor qo'shilmalar avariya yoki nosozlik sababli yuzaga kelishi mumkin.

B I_b — oldingilardan yuqori — pasti portlash xavfining chegarasi (15% va ko'p) va juda kam konsentratsiyalarda ham keskin hid bilan ajraladi.

Faqat avariya yoki nosozlik tufayli portlash xavfi bor qo'shimchalar hosil bo'ladigan tashqi qurilmalar V—I_g sinfiga tegishlidir.

Portlash xavfi bor chang va tolalar bor xonalar V—II portlash xavfi bor qo'shilmalar doim yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va V II_a oxirgisi faqat avariya va nosozliklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xonalarga bo'linadi:

P I sinfi uchun — purkalashdan himoyalangan yopiq, yopiq tabiiy shamollatiladigan yoki majburiy shamollatiladigan.

P II — yopiq, tabiiy shamollatiladigan yoki majburiy shamollatiladigan.

P II_a — himoyalangan.

P III — yopiq tabiiy shamollatiladigan yoki yopiq.

Elektr apparatlar va asboblari uchun:

P I — chang kirmaydigan yoki moy to'ldirilgan.

P II — chang kirmaydigan.

P II_a — yopiq yoki moy to'ldirilgan.

P III — yopiq.

Portlashdan himoyalangan elektr jihozlar qator afzalliklarga ega:


- | | |
|--|---|
| • portlash kirmaydigan | V |
| • kvars to'ldirilgan | K |
| • uchqundan saqlanganlik | I |
| • yuqori ishonchlilik | P |
| • tok o'tkaziladigan qismlarda kuchlanishni avtomatik tarzda o'chirish | A |
| • ortiqcha bosim ostida majburiy shamollatish | P |
| • moy to'ldirilgan | M |
| • maxsus afzallik. | S |

2.4. ELEKTR YUKLAMALAR GRAFIKLARI

Elektr yuklama deganda, ayrim elektr qabul qiluvchi, sexdagi elektr qabul qiluvchilar guruhi, sex, butun korxonaning elektr iste'moli tushuniladi. Sanoat korxonalarida asosan uch turdagi yuklamalar mavjud: aktiv quvvat R , reaktiv quvvat Q va tok I .

Elektr yuklamani o'lchov asboblari asosida kuzatish mumkin. O'zi yozar asbob bilan yuklamalarning o'zgarishi qayd qilinadi (2.1- a rasm).

Ekspluatatsiya jarayonida aktiv, reaktiv quvvatlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini aktiv va reaktiv energiyalar hisoblagichlarining bir xil vaqt intervallaridagi ko'rsatkichlari asosida zinapoya ko'rinishida chizish mumkin (2.1- b rasm).



2.1- rasm. Elektr yuklamalar grafiqlari.


Aktiv va reaktiv quvvat hamda tokning vaqt bo'yicha o'zgarishini aktiv quvvat, reaktiv quvvat va tok yuklamalari grafiqlari

deyiladi. Grafiklarni ikki turga bo'lish mumkin: xususiy va guruh grafiklar. Xususiy grafiklar, odatda, katta quvvatli iste'molchilar uchun olinadi va ular kichik harflar bilan belgilanadi: $r(t)$, $q(t)$, $i(t)$. Guruh grafiklari iste'molchilar guruhiga tegishli bo'lib, bosh harflar bilan belgilanadi: $P(t)$, $Q(t)$, $I(t)$.

Xususiy grafiklar asosida guruh grafiklarini chizish mumkin (2.2- rasm):

$$P(t) = \sum_{i=1}^n p_i(t); \quad Q(t) = \sum_{i=1}^n q_i(t); \quad I(t) = \frac{\sqrt{P^2 + Q^2}}{\sqrt{3} \cdot U_n}. \quad (2.4)$$

Davomiyligiga qarab, korxonaning kunlik va yillik grafiklari bo'ladi, odatda, yillik grafik yuklamaning davomiyligi bo'yicha tuziladi (davomiylik yillik grafigi). Bunda avval quvvatning katta qiymatining vaqt davomiyligi, so'ngra keyingi pog'ona quvvatning vaqt davomiyligi va shu tartibda boshqa pog'onadagi quvvatlar vaqt davomiyliklari ko'rsatiladi (2.3- rasm).




Har xil korxonalarining namunaviy kunlik va yillik grafiklari ma'lumotnomalarda keltirilgan. Bu grafiklar asosida korxonada elektr uskunalarning optimal rejimini tanlash, yuklamalar ortib ketganda qaysi agregatlarni to'xtatish rejasini tuzish, elektr qurilmalarini ta'mirlashni qaysi vaqtlarga mo'ljallash, iste'mol qilinadigan elektr energiyani aniqlash va shunga o'xshash tadbirlarni amalga oshirish mumkin.

Namunaviy grafik asosida korxonaning yuklama grafigini chizish mumkin. Buning uchun korxonaning maksimal hisobiy quvvati P_x ma'lum bo'lishi kerak. U holda:

$$P_k = \frac{n\% \cdot P_x}{100}, [\text{kVt}]. \quad (2.5)$$

Bunda: P_k — kunning ma'lum vaqtidagi quvvati, kVt;
 $n, \%$ — namunaviy grafikda kerakli pog'onaga to'g'ri keladigan ordinata;

P_x — korxonaning hisobiy quvvati.



2.4- rasm. Korxonaning elektr yuklamalari grafigi.

Masalan, sellyuloza-qog'oz korxonasining soat 4 dagi iste'mol (2.4- rasm) qilayotgan quvvati namunaviy dasturda 80% ni tashkil etsa va korxonaga uchun $P_x=2000$ kVt bo'lsa, soat 4 dagi yuklama quyidagicha bo'ladi:

$$P_4 = \frac{80 \cdot 2000}{100} = 1600 \text{ kVt}.$$

Yillik yuklama grafigining yuzasi ma'lum masshtabda korxonaning yil davomida qabul qilgan elektr energiyasining miqdorini beradi. Yillik grafik asosida korxonaning yillik o'rtacha yuklamasini aniqlash mumkin:

$P_{y.o'} = \frac{W_a}{T_y}$. Bunda: T_y — korxonaning yil davomidagi ishlash vaqti.

2.1- jadval

Korxonaning yillik ishlash vaqti

Smenaning davomiyligi, soat	Smenalar soniga qarab T_y soat		
	Bir	Ikki	Uch
8	2250	4500	6600
7	2000	4000	5870

Yillik grafikning yuzasi ma'lum masshtabda korxonaning yilda iste'mol qilgan energiyasining miqdorini beradi. Yillik grafik asosida yuklamalar maksimumining ishlatilish vaqtini aniqlash mumkin:

$$T_{\max} = \frac{W_a}{P_{\max}}.$$

Bunda: W_a — elektr energiyasining yillik iste'moli; P_{\max} — maksimal yuklama.

2.5. ELEKTR YUKLAMALARNING ASOSIY TARIFLARI VA BELGILANISHLARI

1. **Nominal quvvat.** Nominal quvvat P_N deb, elektr motorining nominal sharoitda ishlagandagi ($u=U_{\text{nom}}$, $f=f_N$, $t_0=t_{0\text{nom}}$) o'qidagi quvvati tushuniladi. Boshqa elektr iste'molchilarda $u=U_{\text{nom}}$ bo'lgandagi tarmoqdan olingan quvvati tushuniladi. Takroriy — qisqa muddatli ish rejimida ishlovchi iste'molchilar uchun quvvatni uzoq muddatli rejimga keltirish kerak.

1. Elektr motor:

$$P_{\text{nom}} = P_{\text{pasp}} \sqrt{UD_{\text{pasp}}},$$

$$UV = \frac{t_v}{t_0 + t_v}. \quad (2.6)$$

2. Transformator:

$$S_n = S_{\text{pasp}} \sqrt{UD_{\text{pasp}}}. \quad (2.7)$$

3. Elektr pech transformatori:

$$P_n = S_{\text{pasp}} \cos \varphi_n.$$

Payvandlash transformatori:

$$P_n = \sum_{i=1}^n P_{ni}.$$

Ko'p motorli agregat (UD-ulanib turish davomiligi).

Reaktiv nominal quvvat Q_h deganda, $P=P_n$ va $U=U_{\text{nom}}$ bo'lgandagi tarmoqdan olinayotgan reaktiv quvvat tushuniladi.

$$Q_n = q_{\text{past}} \sqrt{UD_{\text{past}}},$$

$$Q_n = \sum_{i=1}^n q_{ni}.$$

Nominal tok shunga o'xshash aniqlanadi:

$$I_n = I_{pasp} \sqrt{UD_{pasp}} \quad \text{yoki} \quad I_n = \frac{S_{pasp} \sqrt{UD_{pasp}}}{\sqrt{3U_n}}, \quad I_n = \frac{\sqrt{P^2 + Q^2}}{\sqrt{3U_n}}. \quad (2.8)$$

II. O'rtacha yuklama. Vaqtning har qanday oralig'ida o'rtacha quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$p_{o'rt} = \frac{\int_0^i p dt}{t}; \quad q_{o'rt} = \frac{\int_0^i q dt}{t}. \quad (2.9)$$

Ekspluatatsiya vaqtida bitta iste'molchining o'rtacha quvvati:

$$p_{o'rt} = \frac{E_a}{t_{ch}}, \quad Q_{o'rt} = \frac{E_a}{t_{ch}}, \quad (2.10)$$

bir guruh iste'molchilar uchun esa:

$$P_{o'rt} = \frac{E_a}{t_{ch}}, \quad q_{o'rt} = \frac{E_p}{t_{ch}}. \quad (2.11)$$

O'rtacha quvvatning boshqa xarakterli vaqt oralig'idagi qiymati o'ziga mos indekslar bilan belgilanadi.

$P_{o'rt}$ — o'rtacha yillik yuklama.

P_{sm} — maksimum yuklangan smena uchun o'rtacha yuklama.

Maksimal yuklangan smena deb, bir guruh iste'molchilar, sex yoki korxonada uchun xarakterli sutkalarda eng ko'p elektr energiya iste'mol qiladigan smenasiga aytiladi.

Ko'rilayotgan davrda (hafta, oy, yil) bir ish kuni davomida iste'mol qilinayotgan energiya, taxminan o'rtacha qiymatga teng bo'lgan sutka *xarakterli sutka* deyiladi.

III. O'rta kvadratik yuklamalar. Vaqtning har qanday oralig'ida (interval) o'rta kvadratik yuklama quyidagicha aniqlanadi:

$$p_{o'r.kv} = \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T P^2(t) dt}; \quad Q_{o'r.kv} = \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T Q^2(t) dt};$$

$$I_{o'r.kv} = \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T I^2(t) dt}. \quad (2.12)$$

Bunda: T — vaqtning ko'rilayotgan davri.

IV. Maksimal yuklama. P_m – vaqtning ma'lum oralig'idagi o'rtacha quvvatning eng katta qiymati.

Davomiyligi bo'yicha ikki xil maksimal yuklanish turi mavjud:

1. Elektr ta'minlash tarmoqlarida sistema elementlarini qizishi va maksimal quvvat isrofi bo'yicha tanlashda, vaqt davomiyligi bo'yicha turlicha (10, 15, 30, 60, 120 min) maksimal yuklanishlar.

2. Tarmoqlardagi kuchlanish tebranishlarini tekshirish uchun, kontaktli tarmoqlardagi kuchlanish yo'qolishini aniqlash uchun, tarmoqlarni elektr dvigatellarni o'z-o'zidan ishga tushish shartlari asosida tekshirish uchun, saqlagichlarning eruvchan qismlarini tanlash uchun, maksimal tokli relye himoyasini ishga tushish tokini hisoblash uchun davomiyligi 1–2 sek bo'lgan qisqa muddatli maksimal yuklanishlar.

V. Hisobiy yuklama. *Ruxsat etilgan hisobiy yuklama* deb, shunday uzoq vaqtli o'zgarmas yukka aytiladiki, bu yuk kutilayotgan o'zgaruvchan yukning eng og'ir issiqlik ta'siriga ekvivalentdir (o'tkazgichning maksimal qizish t° ga yoki uning izolyatsiyasini issiqlik bo'yicha yoyilishiga).

Umumiy holda maksimal o'rtacha kvadrat, o'rtacha va hisobiy yuklamalar o'rtasida quyidagi munosabat saqlanadi:

$$P_m \geq P_x \geq P_{o'r.kv} \geq P_{o'r}$$

O'zgarmas yoki deyarli o'zgarmas yuklamada ishlaydigan iste'molchilar uchun (ventilyatorlar, nasoslar, kompressorlarning elektr yuritkichlari):

$$P_m = P_x = P_{o'r.kv} = P_{o'r}$$

2.6. YUKLAMALAR GRAFIKLARINI TAVSIFLOVCHI KO'RSATKICHLAR

Yuklamalarni hisoblash va tadqiq qilishda iste'molchilarning quvvat hamda vaqt bo'yicha ish rejimini tavsiflovchi yuklamalar grafiklarining koeffitsiyentlaridan foydalaniladi. Bunday koeffitsiyentlar xususiy va guruh grafiklari uchun aniqlanib, mos ravishda kichik va bosh harflar bilan belgilanadi.

1. *Ishlatilish koeffitsiyenti deganda*, o'rtacha aktiv quvvatning nominal quvvatga nisbati tushuniladi va uning miqdori eng ko'p yuklamali smena uchun aniqlanadi:

$$K_{ia} = \frac{p_s}{p_n}; K_{ia} = \frac{P_s}{P_n} = \frac{\sum_1^n k_{ua} \cdot p_n}{\sum_1^n p_n}. \quad (2.13)$$

Bunda: p_n, P_n — mos ravishda bir yoki guruh iste'molchilarining nominal aktiv quvvatlari. P_n ning miqdorini takroriy qisqa muddatda ishlaydigan iste'molchilarda ularning pasportlaridan olinadi.

$p_{o'rt}, P_{o'rt}$ — mos ravishda ayrim va guruh iste'molchilarning o'rtacha aktiv quvvati. Energiya hisoblagichlarining ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi:

$$p_{o'rt} = \frac{e_a}{t}; P_{o'rt} = \frac{E_A}{t}. \quad (2.14)$$

e_a, E_A — bir yoki guruh iste'molchilarning qabul qilgan aktiv elektro energiyasi.

t_s — sikl uchun vaqt intervali.

Yuqorida keltirilgan munosabatlarni reaktiv quvvatga ham yozish mumkin:

$$K_{ir} = \frac{q_s}{q_n}; K_{ir} = \frac{Q_s}{Q_n} = \frac{\sum_1^n K_{ir} \cdot q_n}{\sum_1^n q_n}; \quad (2.15)$$

$$q_{o'rt} = \frac{E_p}{t}; Q_{o'rt} = \frac{E}{t}. \quad (2.16)$$

Har xil rejimlarda ishlovchi elektr iste'molchilari uchun ishlatilish koeffitsiyentlarining o'rtacha qiymati ma'lumotlarda keltirilgan.


2. **Grafikni to'ldirish koeffitsiyenti** deb, ma'lum vaqt oralig'idagi o'rtacha quvvatning maksimal quvvatga nisbatiga aytiladi:

$$K_{gt} = \frac{P_{o'rt}}{P_m}. \quad (2.17)$$

Odatda $P_{o'rt}$ va P_m larning miqdorlari katta yuklamali smena uchun olinadi.

Aktiv quvvatning maksimumi deganda, ma'lum vaqt oralig'ida o'rtacha quvvatning maksimumi tushuniladi. Smena davomidagi 30 minutli o'rtacha quvvatlarning qiymatlaridan eng maksimumi olinadi. 2.5- rasmda 6 soat davomida har 30 minutga to'g'ri keladigan o'rtacha qiymatlarning grafigi keltirilgan. Ko'rilgan vaqt intervalida 30 minutli yuklamaning maksimum qiymati 330 minutdan 360 minutgacha oraliqda sodir bo'lar ekan.

Yuklamaning ushbu qiymatini ko'p hollarda hisobiy quvvat sifatida ham qabul qilinadi.



2.5- rasm. Olti soat davomida har 30 minutga to'g'ri keladigan o'rtacha qiymatlarning grafigi.

Grafikni to'ldirish koeffitsiyenti guruh iste'molchilari uchun topiladi. Bu koeffitsiyentni aniqlashning reaktiv quvvat uchun ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$K_{gt} = \frac{Q_{o'rt}}{Q_m}$$

Kunlik grafikning to'ldirish koeffitsiyentlarining qiymatlarini turli korxonalar uchun ma'lumotnomalardan olish mumkin.

3. **Maksimum koeffitsiyenti** – grafikning to'ldirish koeffitsiyentiga teskari bo'lgan miqdor, ya'ni:

$$K_m = \frac{1}{K_{Ta}} = \frac{P_m}{P_{o'rt}}; \quad K_m = \frac{1}{K_{gt}} = \frac{Q_m}{Q_{o'rt}}. \quad (2.18)$$

Bu koeffitsiyentning qiymati katta yuklamali smena uchun aniqlanadi va guruh iste'molchilariga tegishli bo'ladi. Agar maksimal quvvat deganda hisobiy quvvatning qabul qilinishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, quyidagi ifoda o'rinli bo'ladi:

$$K_m = \frac{P_x}{P_{o'rt}}. \quad (2.19)$$

Demak, maksimum koeffitsiyenti grafikdan aniqlanadigan ikki eng asosiy miqdorlar – hisobiy va o'rtacha yuklamalar orasidagi munosabatni belgilaydi. K_m koeffitsiyenti hisobiy quvvatning o'rtacha quvvatga nisbatan qancha kattaligini ko'rsatadi. Uning miqdori birga teng yoki katta bo'lishi mumkin. O'zgarmas yuklamani iste'molchilar (ventilyatorlar, nasoslar va shu kabilar) uchun $K_m = 1$, ya'ni $P_x = P_{o'rt}$.

4. **Forma koeffitsiyenti** yuklamaning effektiv (o'rtacha kvadrat) qiymatini uning o'rtacha qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich ayrim iste'molchi yoki guruh iste'molchilari uchun ma'lum vaqt oralig'ida topiladi:

$$K_{fa} = \frac{P_{o'kv}}{P_{o'rt}}; \quad K_{fa} = \frac{P_{o'q}}{P_{o'rt}}. \quad (2.20)$$

$$K_{fr} = \frac{q_{o'kv}}{q_{o'rt}}; \quad K_{fr} = \frac{Q_{o'q}}{Q_{o'rt}}. \quad (2.21)$$

Forma koeffitsiyenti yuklama grafigining vaqt bo'yicha notekisligini ko'rsatadi. Uning eng kichik qiymati vaqt bo'yicha o'zgarmaydigan yuklamada birga teng bo'ladi. O'rtacha kvadrat yuklama quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$P_{o'q} = \sqrt{\frac{\sum_1^n P_k^2 \cdot t_k}{T}} = \sqrt{\frac{\sum_1^n P_k^2}{n}}. \quad (2.22)$$

$$Q_{o'kv} = \sqrt{\frac{\sum_1^n Q_k^2 \cdot t_k}{T}} = \sqrt{\frac{\sum_1^n Q_k^2}{n}}. \quad (2.23)$$

Bunda: $n = \frac{T}{t_k}$ — yuklama grafigining T vaqt oralig'idagi teng

intervalli bo‘laklari soni. Forma koeffitsiyenti K_{fa} ning miqdori ishlab chiqarish jarayoni maromida bo‘lgan korxonalarda 1,05 dan 1,15 oralig‘ida bo‘ladi.

5. **Yuklanish koeffitsiyenti** deb, ma’lum vaqt davomida iste’molchining haqiqiy o‘rtacha quvvatining uning nominal quvvatiga nisbatiga aytiladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$K_{yua} = \frac{P_{o'rt}}{P_n} \quad (2.24)$$

Iste’molchining o‘rtacha haqiqiy yuklamasi $P_{o'rt}$ deganda, uning faqat ulangan vaqtga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yuklamasi tushuniladi. 2.6- rasmda ko‘rsatilgan grafikda ulanish vaqti $t_u = t_1 + t_2 + \dots + t_n$, bo‘lib,

$$K_{yua} = \frac{P_1 \cdot t_1 + P_2 \cdot t_2 + \dots + P_n \cdot t_n}{P_n (t_1 + t_2 + \dots + t_n)} \quad (2.25)$$


Yuklanish koeffitsiyenti iste’molchining ulangan vaqtdagi ishlatilish (foydalanish) darajasini ko‘rsatadi.

6. **Talab koeffitsiyenti** iste’molchilar guruhiga tegishli bo‘lib, u hisobiy yuklamani iste’molchilarning nominal qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi (2.6- rasm):

$$K_{ia} = \frac{P_x}{P_n} \quad (2.26)$$

Ishlatilish va maksimum koeffitsiyentlarining ifodalari hisobga olinsa:

$$K_{ia} = \frac{P_{o'rt}}{P} \cdot \frac{P_x}{P_{\tau}} = K_{ia} \cdot K_{ma}, \quad (2.27)$$



2.6- rasm. Elektr yuklama grafigi.

shuningdek:

$$K_{gt} = K_{up} \cdot K_{mp} \quad (2.28)$$


Talab koeffitsiyentlarining qiymatlari sanoat korxonalaridagi har xil iste’molchilar guruhlari uchun ekspluatatsiya sharoitida tajriba asosida quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$K_T = \frac{P_q}{P_n}. \quad (2.29)$$

Bunda: P_q — iste'molchilar guruhining qabul qilgan aktiv quvvati. Talab koeffitsiyentining har xil iste'molchilar guruhi va korxonalar uchun qiymatlari ma'lumotnomalarda keltirilgan.

2.7. HISOBIY YUKLAMALARNI ANIQLASH USULLARI

Sanoat korxonalarining elektr ta'minot sistemalarida hisobiy yuklamalarni aniqlash kerak bo'lgan xarakterli joylarining sxemasi (2.7- rasm).



2.7- rasm. Sanoat korxonalarining elektr ta'minoti sxemasi.

1. S_{x1} – bitta iste'molchi tomonidan hosil bo'ladigan yuklama. Uning miqdori iste'molchining nominal quvvatiga teng (takrorlanuvchi qisqa muddatda ishlovchi iste'molchining pasportidan quvvat UD=100% ga keltiriladi). Bu yuklama asosida ta'minlovchi liniyaning ko'ndalang kesimi aniqlanadi va kommutatsiya hamda himoya apparatlari tanlanadi.

2. S_{x2} – guruh iste'molchilari hosil qiladigan yuklama. Uning hisobiy quvvatini aniqlashda yoritish qurilmalarining yuklamalari va kompensatorlarning reaktiv quvvatlarini nazarda tutish kerak. Bu yuklama asosida iste'molchilar guruhini energiya bilan ta'minlovchi liniyalarning ko'ndalang kesimlari aniqlanadi va kommutatsiya va himoya apparatlari tanlanadi.

3. S_{x3} – sex transformator podstansiyasining (TP) kichik kuchlanishi (KK) tomonidagi shinalar yuklamasi. Uning qiymatini eng ko'p yuklamali smenada iste'mol qilinadigan o'rtacha quvvatga teng deb olinadi. Ushbu yuklama asosida sex podstansiyasining transformatorlari quvvatlari va soni, TP shinalarining ko'ndalang kesimlari, KK tomonidagi kommutatsiya va himoya apparatlari qabul qilinadi.

4. S_{x4} – sex TP ning yuqori kuchlanishi (YUK) tomonidagi hisobiy yuklama. Uni hisoblashda TP ning KK tomonidagi hisobiy quvvatga transformatorlardagi quvvat nobudgarchiliklarini qo'shish kerak. Bu yuklama asosida sex TP ga keluvchi YUK liniyalarning ko'ndalang kesimlari va shu liniyalarga o'rnatiladigan kommutatsiya va himoya apparatlari qabul qilinadi.

5. S_{x5} – bosh pasaytiruvchi podstansiyaning (BPP) shinalaridagi hisobiy yuklama. Uning qiymatini aniqlashda BPP dan ketuvchi liniyalardagi hisobiy yuklamalar asos qilib olinadi. Bu yuklama bazasida BPP ning transformatorlari quvvatlari va soni, kommutatsiya hamda himoya apparatlari qabul qilinadi.

6. S_{x6} – BPP ning YUK tomonidagi hisobiy yuklama. Uning qiymatini hisoblashga BPP ning KK tomonidagi hisobiy quvvat va transformatorlardagi nobudgarchiliklar asos bo'ladi. Bu yuklama bazasida BPP ga keluvchi YUK liniyalarning ko'ndalang kesimlari aniqlanadi va kommutatsiya, shuningdek, himoya apparatlari qabul qilinadi. Aniqlanish joylariga va loyihalash bosqichlariga bog'liq ravishda, hisobiy yuklamalarni topishda aniq va soddalashtirilgan usullari qabul qilinadi yoki ishlatiladi.

Asosiy usullar ikki guruhga bo'linishi mumkin.

1. $P_r = K_1 P_n$, $K_1 < 1$.
2. $P_h = K_2 P_s$, $K_1 \geq 1$ yoki $P = P_s + \beta \sigma$.

Hisobiy yuklamalarni aniqlash usullari.

I. Ishlab chiqarish maydoni birligiga mos keluvchi solishtirma yuk bo'yicha hisobiy yuklama quyidagicha aniqlanadi:

$$P_h = P_{sol} F. \quad (2.30)$$

Bunda: P_{sol} (sol) — ishlab chiqarish yuzasini $1m^2$ ga mos keluvchi solishtirma hisobiy quvvati, kVt/m^2 ; F — iste'molchilar joylashgan yuza (m^2).

Bu usul birinchi marta Mukoseyev tomonidan taklif qilingan edi, u kichik va o'rta mashinasozlikning universal tizim sexlarini loyihalashga mo'ljallangan. Bu sexlar katta miqdorda kichik quvvatli iste'molchilarga ega va ishlab chiqarish yuzasi bo'yicha nisbatan bir xil joylashgan.

Universal tarmoqlar deyilganda shunday tarmoqlar tushuniladi, bular texnologik jarayonlar va qurilmalarning joylar almashtirish talablariga o'zgarishsiz javob beradi.

Bu usul hisobiy yuklamani loyihalash bosqichida, variantlarni solishtirishda va boshqa shu kabi hisoblarda keng qo'llaniladi.

II. Ishlab chiqilayotgan mahsulot birligiga mos keluvchi qabul qilinayotgan solishtirma elektr energiya bo'yicha hisobiy yukni aniqlash.

Korxonada yoki ma'lum bir sexning yillik elektr energiya iste'moli quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$P_{yil} = E_{sol} M. \quad (2.31)$$

Bunda: E_{sol} (solish) — mahsulot birligiga mos keluvchi solishtirma elektr energiya talabining normasi; M — yil mobaynida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning natural soni.

Ba'zi bir sanoat mahsulotlarining solishtirma elektr energiya xarajatlari haqida ma'lumotnomalarda beriladi.

Hisobiy quvvatning kattaligi:

$$P_h = E_{yil} / T_{max}. \quad (2.32)$$

Bunda: T_{\max} — aktiv quvvat maksimumini yil davomida ishlatish soat miqdori.

Bu usul yuklamalar grafigi kam o'zgaruvchi elektr iste'molchilari uchun qo'llaniladi. Bu kabi iste'molchilarga havo haydagich va nasoslarining elektr yuritmalari, elektroliz qurilmalarining o'zgartkich agregatlari, qarshilik o'chog'i, qog'oz va kimyo sanoatlarining ko'p miqdordagi iste'molchilari kiradi.

III. Hisobiy yuklamalarni o'rtacha quvvat va forma koeffitsiyenti bo'yicha aniqlash.

$$P_h = K_{fa} P_{o'rt}, \quad Q_h = K_{fr} Q_{o'rt} \quad \text{yoki} \quad Q_h = P_h \operatorname{tg} \varphi.$$

$$K_f = \frac{i_{o'r.kv}}{i_{o'rt}}, \quad S_x = \sqrt{P_x^2 + Q_x^2}. \quad (2.33)$$

Bu qaralayotgan usulda hisobiy yuklama o'rta kvadratik yuklamaga teng deb olinadi.

Takroriy qisqa vaqtli rejimda ishlayotgan elektr iste'molchilar uchun bu ifoda barcha sharoitlarda to'g'ri hisoblanadi.

Bu usul sex shina o'tkazgichlarining hisobiy yakunini aniqlashda, tarqsimlovchi podstansiya shinalarini (GRP, RP), sex transformator podstansiyalarining kam kuchlanishli shinalarini, qachonki yuk bir xil grafikka ega bo'lganda va K_f kattaligi 1÷1,2 bo'lganda, hisobiy yuklamasini aniqlash uchun qo'llaniladi.

IV. Hisobiy yuklamalarni nominal quvvat va talab koeffitsiyenti bo'yicha aniqlash. Ish bo'yicha rejimi bir xil turdagi elektr iste'molchilari guruhi uchun hisobiy quvvat quyidagi ifodalardan aniqlanadi:

$$P_h = P_h K_t, \quad Q_h = P_h \operatorname{tg} \varphi, \quad S_h = \sqrt{P_h^2 + Q_h^2}. \quad (2.34)$$

Elektr ta'minoti sistemasi tugunining (sex, korpus, korxon) hisobiy yuklamasi bu tuguncha kiruvchi alohida iste'molchilar guruhining hisobi yuklamalarining maksimumlarini har xilligini hisobga oluvchi koeffitsiyenti orqali aniqlanadi:

$$S_h = \sqrt{\left(\sum_1^n P_p\right)^2 + \left(\sum_1^n Q_p\right)^2} K_{xm}. \quad (2.35)$$

Bunda: K_{xm} — tugunning sanoat korxonasi elektr ta'minot sistemasining joylashgan o'rniga bog'liq ravishda alohida elektr

iste'molchilar guruhi uchun aniqlanadi va uning qiymati 0,85—1 gacha oraliqda bo'ladi. Ushbu usul korxonaning yuklamasini texnik loyiha bosqichi va shu kabi hisoblarida qo'llaniladi.

Kokso-kimyoo sexining har xil ish rejimida ishlayotgan elektr iste'molchilari guruhi uchun hisobiy yukini talab koeffitsiyenti bo'yicha aniqlashgan quyidagi misolda va natijalari 2.2- jadvalda keltirilgan.

2.2- jadval

	Guruh iste'molchilari nomi	Iste'molchilar soni	PΣ, kVt	K _{ta}	cosφ/tgφ	Hisobiy yuklar		
						P _x = P _H , K _T	Q _x = P _x tgφ	S _x = √P _x ² + Q _x ²
1.	Transporter	10	191,4	0,8	0,73/0,882	153,1	135	
2.	Dozirov stol	2	9	0,35	0,5/1,732	3,2	5,5	
3.	Iste'molchi	23	158,5	0,6	0,75/0,882	95	83,9	
4.	Ventilyator	8	18	0,8	0,85/0,62	14,4	8,9	
	Umumiy	49	376,9	0,7	0,76/0,878	205,7	233,2	351

V. Tartiblangan diagramma usuli bo'yicha hisobiy yuklamani aniqlash

Bu usul bo'yicha iste'molchilarni taqsimlovchi va ta'minlovchi tarmoqlarni barcha pog'onalarida aktiv hisobiy yuklama quvvatining o'rtacha qiymati va maksimum koeffitsiyenti orqali aniqlanadi:

$$P_n = K_m P_{o'rt} = K_m K_i i P_n \quad (2.36)$$

Hisobiy reaktiv yuklama quyidagiga teng:

$$\begin{aligned} n_{ef} \leq 10; & \quad Q_h = 1,1 Q_{urt}; \quad Q_{o'rt} = K_{ir} Q_n; \\ n_{ef} > 10; & \quad Q_h = Q_{o'rt}; \quad Q_{o'rt} = P_{o'rt} \operatorname{tg}\varphi. \end{aligned} \quad (2.37)$$

Bu ifodalar yordamida hisobiy yuklamani aniqlash $n_{ef} \geq 4$ bo'lganda o'rinlidir (chunki K_{ta} ning hisoblash ifodasi $n_{ef} \geq 4$ bo'lganda asoslangan bo'lib, $K_t = f(n_{ef})$ egri chizig'i faqat $n_{ef} = 4$ qiymati uchun qurilgan).

$n_{ef} < 4$ bo'lganda, hisobiy yuklamani aniqlashning quyidagi soddalashtirilgan usuli tavsiya etiladi:

1. Uchta va undan kam bo'lgan bir guruh iste'molchilarni (yoki ko'p dvigatelli privod) hisobiy yuklamalari, bu iste'molchilarni nominal quvvatlarining yig'indisiga teng deb qabul qilinadi:

$$P_h = \sum_{i=1}^n P_{ni}; \quad Q_h = \sum_{i=1}^n q_{ni} = \sum_{i=1}^n P_{ni} \operatorname{tg} \varphi. \quad (2.38)$$

2. Bitta kran uchun hisobiy yuklama ikkita eng katta quvvatli elektr iste'molchining nominal quvvatiga teng qilib olinadi.

3. Agar guruhda elektr iste'molchilari uchta va undan ortiq hamda $n_{ef} < 4$ bo'lsa, hisobiy yuklama nominal quvvatlarni ular uchun xarakterli bo'lgan yuklanish koeffitsiyentlarga ko'paytmalarining yig'indisiga teng bo'ladi:

$$P_h = \sum_{i=1}^n P_{ni} K_{yua}; \quad Q_h = \sum_{i=1}^n q_{ni} K_{yupi} = \sum_{i=1}^n P_{ni} \operatorname{tg} \varphi K_{yupi}. \quad (2.39)$$

Davomli ishlaydigan iste'molchilar uchun $K_{yu} = 0,8 \div 0,9$.

Takroriy-qisqa vaqtli rejimda ishlaydigan iste'molchilar uchun $K_{yu} = 0,8 \div 0,9$.

4. Amalda o'zgarmas yuklanish grafikli, davomiy rejimda ishlaydigan bir guruh iste'molchilar uchun ularning $K_{ul} \approx 1$ va $K_{gr.t} \geq 0,9$ bo'lsa, $K_m = 1$ deb olish mumkin, unda:

$$P_x = P_{o'rt}, \quad P_{o'z} = K_{ia} \cdot R_n, \quad Q_x = Q_{o'rt}.$$

deb hisoblanadi. 2.3- jadvalda iste'molchilarning tartiblangan diagramma usuli yordamida hisoblab quvvatlari aniqlangan.

Elektr energiya sarfini hisoblash usullari

1. Agar korxonada, sex uchun bir yilda ishlab chiqarilgan mahsulot birligi uchun solishtirma elektr energiya sarfi natural ko'rinishda ma'lum bo'lsa, (t, m, m³ hokazo.) yillik aktiv energiya sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{yil} = E_{sol} M - \text{yillik mahsulot hajmi.}$$

2. Agar solishtirma energiya sarfi bo'lmasa, ammo smenaning nisbiy yuklanishi haqida ma'lumot bo'lsa, yillik aktiv energiya sarfi quyidagicha aniqlanadi:

2.3- jadval

Iste'molchilar nomi	Iste'molchisoni	UD=100% keltirim nominal quvvat		$m = \frac{P_{qumman}}{P_{nmin}}$	K_1	cosφ tggφ	O'rtacha quvvat		n_{et}	K_m	Hisobiy quvvat		
		bitta iste'molchining P_n kVt	umumiy P_n kVt				P_{ort}	Q_{ort}			P_x	Q_x	S_x
O'zgaruvchan grafik bilan ishlaydigan iste'molchilar													
1. Dozirovka stollari	2	4,5	9	-	0,25	0,5/1,732	2,3	3,9					
2. Iste'molchilar	23	7÷4,5	158,5	1,5	0,45	0,75/0,882	71,3	62,9					
Umumiy	25	7÷4,5	167,5	1,5	0,44	—	73,6	66,8	25	1,18	86,9	66,8	
O'zgarmas grafik bilan ishlaydigan iste'molchilar													
1. Transporterlar	16	40÷2,8	191,4	—	0,6	0,75/0,882	114,8	101,3					
2. Ventilyator nasoslar	8	3,8÷1	18	—	0,7	0,85/0,62	12,6	7,8					
Umumiy	24	40÷1	209,4				127,4	109,1	—	—	127,4	109,1	
Sex bo'yicha	49	40÷1	376,9				201	175,9			214,3	175,9	277,2

$$E_{yil} = P_{sm} (T_1 + \beta_2 T_2 + \beta_3 T_3 + \beta_4 T_4) C_1 C_2.$$

Bunda: T_1, T_2, T_3, T_4 – birinchi 2,3 va 4 smenalardagi ish soatlari yoki ayrim smenalarning bir yillik ish vaqti fondi.

$\beta_2, \beta_3, \beta_4$ – kam yuklangan 2-, 3- va 4- smenalarning yuklanish darajasini hisobga oladigan koeffitsiyentlar bo‘lib, ayrim smenalardagi quvvat maksimumini eng ko‘p yuklangan birinchi smenalardagi quvvat maksimumiga nisbati quyidagicha ifodalanadi:

$$\beta_2 = \frac{P_{m2}}{P_{m1}}; \beta_3 = \frac{P_{m3}}{P_{m1}}; \beta_4 = \frac{P_{m4}}{P_{m1}}.$$

$S_1 = 1 \div 1,05$ – yakshanba va bayram kunlarida ishlashni hisobga olib boradigan koeffitsiyent.

$S_2 = 0,8 \div 0,9$ – bir oy davomida quvvat o‘zgarishini hisobga oladigan koeffitsiyent.

3. Bundan tashqari yillik aktiv quvvat sarfi quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$E_{yil} = K_{yil} P_n T_{yil} \alpha = P_{yil} T_{yil} \alpha.$$

Bunda: T_{yil} – korxonaga yoki sexning bir yillik ish fondi (haqiqiy ish soati).

P_n – elektr iste‘molchilarining quvvati;

$P_{o'r}$ – o‘rtacha quvvat;

α – texnologik ma‘lumotlar asosida energiya iste‘molini smenalarda bo‘yicha aniqlovchi yillik koeffitsiyent;

α koeffitsiyent ayrim smenalarning tekis yuklanmasligini, yuklanishning mavsumiy tebranishi hamda ishlab chiqarishning doimiy emasligini, yakshanba va bayram kunlari ishlashini hisobga oladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$\alpha = \frac{E_y}{P_{sm} T_y}.$$

4. Loyiha ishini bajarish arafasida yillik elektr energiya sarfini taxminan quyidagicha aniqlash mumkin:

$$E_{yil} = P_t T_t.$$

Bunda: T_t – yuklama maksimumlarining bir yilda qabul qilinish vaqti. Bunda: P_t – aktiv maksimal quvvat.

5. Yoritish qurilmalari uchun aktiv energiyaning yillik sarfi quyidagi ifodadan topiladi:

$$E_{\text{yil}} = K_{s,\text{yo}} P_{n,\text{yo}} T_{m,\text{yo}}$$

Bunda: $K_{s,\text{yo}}$ — talab koeffitsiyenti.

$P_{n,\text{yo}}$ — yoritish qurilmalarining nominal quvvatlari yig'indisi;

$T_{m,\text{yo}}$ — yoritish yuklamasi uchun quvvat maksimumining bir yildagi ishlatish vaqti.

6. Reaktiv energiyaning bir yildagi sarfi quyidagi ifodalar bo'yicha aniqlanadi:

$$E_r = Q_m T_{\text{rm}}, \quad E_r = E_{\text{agm}} \text{tg}\varphi_2.$$

$$E_r = Q_s (T_1 + \beta_2 T_2 + \beta_3 T_3 + \beta_4 T_4) C_1 C_2.$$

Bunda: Q_s — eng og'ir yuklangan smena uchun o'rta reaktiv quvvat;

Q_m — maksimal reaktiv quvvat;

$\text{tg}\varphi_2$ — quvvat koeffitsiyentining bir yil davomidagi o'rtacha qiymati bo'yicha aniqlanishi;

T_{rm} — reaktiv energiya maksimumining bir yilda ishlatilish soati.

2.8. FUQARO VA JAMOA BINOLARINING ASOSIY ISTE'MOLCHILARI

Fuqaro binolarining elektr iste'molchilarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

- xonadonlarning elektr iste'molchilari;
- umumbino elektr iste'molchilari.

Birinchi guruhga yoritish va elektr asboblari; ikkinchisiga esa zinapoyalar, cherdaklar vestibyullar, xollar, lift qurilmalari, ventilyatsion tizimlar va har xil yong'inga qarshi qurilmalardagi yoritkichlar kiradi.

Xonadonlardagi elektr yoritish cho'g'lanma lyuminissent lampalar yordamida amalga oshiriladi. Maishiy elektr asboblarga quyidagilar kiradi: isituvchi, xo'jalik, madaniy-maishiy, sanitariya-gigiyenik, maishiy havo konditsionerlari, suv isitkichlar, xonalarni isitish uchun asboblari.

Zinalar, vestibyullar, xonalar va dahlizlarni yoritish uchun cho'g'lanma va lyuminissent lampalar ishlatiladi. Lyuminissent lampalarning ishlash vaqti katta va kuchlanish tebranishiga ta'siri kamroq.

Kuch elektr iste'molchilarga qisqa tutashgan rotorli asinxron motorlar va boshqa elektr liftdagi qurilmalar kiradi.

Baland binolarda maxsus elektr yuritmalik liftlar, ularda elektromagnit tormoz va boshqarish apparaturalari mavjud.

Kuch elektr iste'molchilariga ventilyator va nasoslarning elektr motorlari, to'qqiz qavatdan yuqori bo'lgan binolarda tutunni bartaraf qilish tizimidagi klapan va lyuklarni ochish uchun har xil elektromagnitlar hamda aloqa va signalizatsiya apparaturalari kiradi.

Jamoa binolariga quyidagilar kiradi: har xil idoralar va boshqaruv tashkilotlari, moliyalash, kreditlash, davlat sug'urta, ta'lim, maktabgacha ta'lim, kutubxonalar, arxivlar, savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mehmonxonalar, davolash muassasalari, muzeylar, tomoshabop inshootlar va sport inshootlari.

Jamoa binolarining elektr iste'molchilarini ikki guruhga bo'lish mumkin: yoritish va katta quvvatli iste'molchilar.

Jamoa binolarining asosiy xonalarida atrof-muhit sharoiti va bajarilayotgan ishga muvofiq ravishda lyuminissent lampali yoritkichlardan foydalaniladi. Ichki va tashqi yoritish uchun metallogalogen, natriyli, ksenonli lampalardan ham foydalaniladi. Yordamchi xonalarda (omborlar, bazalar) cho'g'lanma lampalar ishlatiladi.

Kuch elektr iste'molchilarga mexanik uskunalik elektr issiqlik uskunalari, muzlatkich mashinalar, ko'tarma transport uskunalari, sanitar-texnik qurilmalar, aloqa, signalizatsiya, yong'inga qarshi qurilmalar kiradi.

Jamoa binolarining ventilyatsion qurilmalarida havoni kondensatsiyalash tizimi, issiq va sovuq suv bilan ta'minlash tizimida nasoslardan keng ko'lamda foydalaniladi. Ko'pchilik mexanizmlar qisqa tutashgan rotorli asinxron motorlar bilan jihozlangan.

2.9. FUQARO VA JAMOA BINOLARINING HISOBIY YUKLAMALARI

Fuqaro binolarining elektr yuklamalari tasodifiy xarakterga ega va uy elektr jihozlarining mavjudligi, ularning ishlash rejimi, oilaning mehnat rejimi, xonalarning tabiiy yoritilganligi va boshqa omillarga bog'liq. Aholining sotib oladigan jihozlarining soni va quvvatini ortishi hisobiga yuklamalar muntazam ravishda ortib bormoqda.

Shuning uchun tarmoqlarni loyihalash jarayonida yuklamalarni, o'sib borishini hisobga olish zarur (ichki tarmoqlar uchun 15 yil, tashqi tarmoqlar uchun esa 10 yil).

Xonadonlarning elektr yuklamalarini hisoblash uchun (kilovatt/xonadon orqali ifodalangan) solishtirma elektr yuklamalaridan foydalaniladi (bu qiymatlar SN 544-82 fuqaro binolarining jihozlarini loyihalash instruksiyasida keltirilgan) (2.3-jadval).

Solishtirma yuklamalar yoritish va uy jihozlari hamda umum-bino xonalarini yoritishiga, energiyaning turiga (gaz plitasi, elektr plitasi) va berilgan tarmoqqa birlashgan xonadonlar soniga bog'liq.

Tarmoqning ixtiyoriy bo'limi uchun hisobiy maksimal yuklama (aktiv iste'mol qilingan quvvat) $P_{m.kv}$ quyidagiga teng:

$$P_{m.kv} = (P_{kv.sol.} + P_{sol.kon.}) n.$$

Bunda: $P_{kv.sol.}$ — solishtirma hisobiy yuklama jadvaldan aniqlanadi, kVt/xonadon n — xonadonlar soni; $P_{sol.kon.}$ — maishiy kondensiyonlarning qo'shimcha solishtirma yuklamasi.

Misol. 60 ta xonadonli jamoa binosini ta'minlaydigan tarmoqning hisobiy yuklamasini aniqlang. Xonadonlarning 50% i 55 m² umumiy yuzaga ega va 50% i esa 65 m² yuzaga teng. Xonadonlar quvvati 5,8 kVt. li elektr plitalar bilan jihozlangan.

Yechish. 2.4- jadvalda berilgan qiymatlardan foydalanib, $P=1,3$ kVt/xonadon deb qabul qilinadi.

2. Formulaga asoslanib va umumiy yuzasi 55 m² dan ortgan har bir 1 m² yuzaga 0,5% ustama hisobga olinib hisobiy quvvat aniqlaniladi:

$$P_{m.kv} = (30 \cdot 1 + 30 \cdot 1,05) \cdot 1,3 = 80,0 \text{ kVt.}$$

Turar joy binolari xonadonlarining solishtirma hisobiy elektr yuklamasi, kVt/xonadon

Elektroenergiya iste'molchilar nomlari	Xonadonlar soni													
	1-3	6	9	12	15	18	24	40	60	100	200	400	600	1000
Xonadon plitalari tabiiy gazli Siqilgan gazli va qattiq yoqilg'ili Elektrli quvvati 5,8 kVt gacha Elektr quvvati 5,9—8 kVt Uyda va dala hovlilarda	4,5	2,3	1,75	1,45	1,3	1,15	1	0,8	0,7	0,6	0,5	0,45	0,43	0,4
	5	2,6	2	1,65	1,48	1,35	1,15	1	0,9	0,8	0,75	0,7	0,65	0,55
	6	3,2	2,7	2,4	2,15	2	1,8	1,5	1,3	1,15	1	0,9	0,85	0,8
	7	4	3	2,5	2,15	2	1,8	1,5	1,3	1,15	1	0,9	0,85	0,8
	3	1,5	1,1	0,9	0,75	0,7	0,6	0,5	0,45	0,4	0,38	0,35	0,33	0,3
Konditsionerlar	1,1	1	0,95	0,9	0,83	0,8	0,7	0,58	0,45	0,3	0,35	0,1	—	—

Liftli qurilmalarning hisobiy maksimal yuklamalari quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{\max.l} = K_T \cdot \sum_1^n P_{o'rn.l.}$$

Bunda: $P_{o'rn.l.}$ — lift qurilmasining oʻrnatilgan quvvati, kVt;
 $P_{o'rn.l.}$ — lift qurilmasining UD-1 ulanish davomiyligiga keltirilgan quvvat boʻlib, u quyidagi ifodaga teng boʻladi:

$$P_{o'rn.l.} = P_{pasp} \sqrt{UD} + P_{qolg.}$$

Bunda: P_{pasp} — lift elektr motorining pasport quvvati, kVt;
 P_{qolg} — qolgan elektr isteʼmolchilarning — elektr tormoz, kabinani yoritish, relye va kontaktorlarning chulgʻamlari quvvatlari, kVt;

UD — ulanish davomiyligi, zamonaviy liftlar uchun UD—0,6.

Talab koeffitsiyentlar liftlarning soni va binolarning qavatlariga bogʻliq va 0,4 dan 1 gacha oʻzgaradi. Yuqori qiymatlar koʻp qavatli binolarga, tegishli liftlarning soni ortishi bilan talab koeffitsiyenti kamayadi.

Xonadonlar va kuch elektr isteʼmolchilarini aralash taʼminlanishi natijasida liniyani va transformator podstansiyalarni taʼminlaydigan toʻla yuklama quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{\max} = P_{m. kv.} + 0,9 P_t,$$

Bunda: P_t — katta quvvatli elektr isteʼmolchilarning toʻla hisobiy yuklamasi, kVt; 0,9 — maksimumlarning ustma-ust tushmasligini hisobga oluvchi koeffitsiyenti.

Kechki maksimum davrida xonadon tarmoqlari uchun quvvat koeffitsiyentlari ($\cos \varphi$) cos gaz plitali uylar uchun 0,96, elektr plitalar uchun — 0,98, lift qurilmali tarmoqlar uchun — 0,6.

Jamoa binolarining elektr yuklamalari. Maʼmuriy, jamoa, oʻquv, davolash binolari, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining oʻrnatilgan quvvati texnik koʻrsatkichlar asosida aniqlanadi. Bu quvvat berilgan binolarning hamma yoritish asboblarning toʻla quvvatlar yigʻindisini oʻz ichiga oladi. Xonalarning vazifasi va xarakteriga bogʻliq ravishda lampalarning bir qismi yoqilmaydi. Shuning uchun elektr yoritish tarmoqlarini hisoblash-

da choʻgʻlanma lampalarning hammasi ishlagandagi hisobiy quvvat qiymatidan foydalanadi:

$$P_{\text{yor.max.}} = K_t \cdot P_{\text{yor.oʻrn.}}$$

Bunda: $P_{\text{yor.oʻrn.}}$ — yoritish lampalarning oʻrnatilgan quvvati, kVt; K_t — talab koeffitsiyenti; $P_{\text{yor.max.}}$ — yoritish maksimal hisobiy quvvati, kVt.

2.5- jadval

Korxonalar va tashkilotlar	Ishchi yoritishning oʻrnatilgan quvvatiga (kVt) qarab talab koeffitsiyentining qiymatlari, K_{yor}					
	25 gacha	26–50	51–100	101–200	201–500	500 dan ortiq
Mehmonxonalar, oʻquv ishlab chiqarish ustaxonalari, kasb-hunar bilim yurtlari, yotoqxonalar va oromgohlar	0,6	0,5	0,45	0,4	0,35	0,3
Umumiy ovqatlanish korxonalar	0,8	0,75	0,65	0,6	0,55	0,5
Umum taʼlim maktablari, kasb-hunar bilim yurtlari, oʻrta maxsus oʻquv bilim yurtlari, boshqarish tashkilotlari va muassasalari	0,85	0,8	0,75	0,7	0,65	0,6
Savdo korxonalar, loyihalash va konstruktorlik tashkilotlari, sartaroshxonalar	0,9	0,85	0,8	0,75	0,7	0,65
Maishiy xizmat koʻrsatish korxonalar	0,85	0,8	0,75	0,7	0,65	0,6

2.5- jadvalning davomi

Dorixonalar va poliklinikalar	0,8	0,77	0,75	0,7	-	-
Kasalxonalar	0,7	0,6	0,5	0,4	0,35	0,3

Lyuminiscent lampalar orqali yoritganda ishga tushiruvchi va o'zgartiruvchi apparaturalardagi quvvat o'rnatilgan lampalar quvvatining 25% ni tashkil etadi. Shuning uchun:

$$P_{\text{yor.max.}} = 1,25 K_T \cdot P_{\text{o'rn.uor.}}$$

Bunda K_T — qiymati ma'lumotnomalarda keltiriladi.

Jamoa binolarining guruhiy tarmog'ining ishchi, avariya va evakuatsion yoritishni hisoblash uchun talab koeffitsiyenti 1 ga teng deb hisoblanadi.

Jamoa binolarining yoritish tarmoqlari uchun talab koeffitsiyentlari quyidagi 2.5- jadvalda berilgan.

Misol. Universal do'konda har biri 40 Vt li ikkita lampali 600 lyuminiscent yoritkich va shu tipdagi har biri 60 Vt li 500 yoritkich o'rnatilgan. Binoga kiruvchi tarmoqning hisobiy quvvatini aniqlang.

Yechish. 1. Yuqoridagi formuladan foydalanib, ishga tushiruvchi va o'zgartiruvchi apparatlardagi quvvat isrofini hisobga olgan holda, yoritish qurilmasining o'rnatilgan quvvati aniqlanadi:

$$P_{\text{yor o'rn.}} = 1,25 \cdot (600 \cdot 2 \cdot 40 + 500 \cdot 2 \cdot 80) = 160 \text{ kVt.}$$

2. Talab koeffitsiyentni jadvalga asosan qabul qilib, $K_T = 0,75$. Binoga kiruvchi tarmoqning hisobiy quvvati aniqlaniladi:

$$P_{\text{yor o'rn.}} = 0,75 \cdot 160 = 120 \text{ kVt.}$$

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH SAVOLLARI

1. Elektr qurilmalari deganda nima tushuniladi?
2. Elektr iste'molchilari tok, kuchlanish, ishonchlilik ish rejimlari bo'yicha qanday guruhlarga bo'linadi?
3. Atrof-muhitga qarab xonalarni qanday guruhlarga bo'lish mumkin?
4. Elektr yuklama deganda nima tushuniladi?
5. Xususiy grafik asosida korxonada yuklama grafigi qanday hisoblanadi?
6. Namunaviy grafik asosida korxonada yuklama grafigi qanday hisoblanadi?

7. *Yuklamalar grafiklarini tavsiflovchi koeffitsiyentlar qiymatlari qanday aniqlanadi?*
8. *O'rtacha quvvatni aniqlash formulalarini keltirib chiqaring.*
9. *Ekspluatatsiya sharoitida o'rtacha quvvat qanday aniqlanadi?*
10. *Hisobiy quvvatga ta'rif bering.*
11. *Yarim soatli maksimal yuklama nima?*
12. *Elektr ta'minoti sxemasida qanday xarakterli joylar mavjud?*
13. *Hisobiy quvvatni aniqlash usullarining ikki guruhini tushuntirib bering.*
14. *Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan elektr energiyasi asosida hisobiy quvvat qanday aniqlanadi?*
15. *Yuza birligiga to'g'ri keladigan yuklama asosida hisobiy quvvatni aniqlash usulini tushuntirib bering.*
16. *Talab koeffitsiyenti usulining mohiyati nimadan iborat?*
17. *O'rtacha quvvat va forma koeffitsiyenti asosida hisobiy quvvatni aniqlash qanday iste'molchilar uchun to'g'ri hisoblanadi?*
18. *Tartibga solingan diagrammalar usulining asosiy formulasini tushuntirib bering.*
19. *Fuqaro binolarining elektr iste'molchilari nechta guruhga bo'linadi?*
20. *Jamoa binolarining asosiy iste'molchilarini keltiring.*
21. *Fuqaro va jamoa binolarining hisobiy yuklamalarini aniqlash formulalarini tushuntiring.*

III BOB.
FUQARO, JAMOA BINOLARI VA SANOAT
KORXONALARIDA KUCHLANISHI
1000 V GACHA BO'LGAN
ELEKTR ENERGIYANING TAQSIMLANISHI

3.1. SANOAT KORXONALARINING KUCHLANISHI
1000 V GACHA BO'LGAN TARMOQ SXEMALARI

Sex elektr tarmoqlarining sxemalari elektr iste'molchilarning quvvatlari, ularning soni, joylanishi va boshqa omillarga bog'liq bo'lgan holda:


- elektr ta'minoti tizimi iste'molchilarning toifalariga qarab kerakli darajadagi ishonchlilikni ta'minlashi;
- ekspluatatsiya sharoitida qulay bo'lishi;
- kapital sarfi, rangli metallarning ishlatilishi, ekspluatatsiya xarajatlari va energiyaning nobudgarchiligi bo'yicha texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari optimal bo'lishi;
- elektr tarmoqlari montajida industrial va tezkor usullarni joriy qilish imkoniyati bo'lishi kerak.

Sex ichkarisida ta'minlovchi va taqsimlash tarmoqlari mavjud bo'lib, ular transformator podstansiyasining kichik kuchlanishli shinalarini taqsimlash shkafllari (TSH), taqsimlagich shina o'tkazgichlari yoki katta quvvatli iste'molchilar bilan bog'laydi. Ayrim hollarda ta'minlovchi tarmoqlar BTM (blok transformator magistral) sxemasida bajariladi (3.1 - a, b rasmlarga).

Sex ichkarisidagi taqsimlash tarmoqlari orqali iste'molchilarga energiya bevosita uzatiladi. Taqsimlash tarmoqlari taqsimlovchi shina o'tkazgichlari va taqsimlash shkafllari orqali bajariladi.

Sex ichkarisidagi elektr tarmoqlarini tuzilishi bo'yicha radial, magistral va aralash sxemalarga bo'lish mumkin. Radial sxemalarda katta quvvatli iste'molchilar TP dan chiqadigan maxsus liniyalar orqali elektr energiyasini qabul qiladi (3.2-rasm).

Radial tarmoqlar, odatda, o'tkazgich yoki kabel liniyalari orqali bajariladi. Radial sxemaning afzalligi uning yuqori darajadagi ishonchlilikni ta'minlashi va qisqa tutashuv toki miqdorining ozligidan iborat. Kamchiliklari esa quyidagilardan



3.1- rasm. Blok transformator sxemasi.

1 – ta'minlovchi magistral; 2 – taqsimlovchi shina o'tkazgichlari.


iborat: ko'p miqdorda o'tkazgich materiallar, quvurlar, taqsimlash shkaflarining sarflanishi; ishlatiladigan himoya va kommutatsiya apparatlari sonining ko'pligi; tarmoqlarning texnologik jarayonlar o'zgarishiga moslashuvining chegaralanganligi; yuqori darajadagi industrlashgan montaj texnologiyalarining ishlatila olinmasligi.

Magistral sxemalar korxonada tekis taqsimlangan iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda keng ishlatiladi (3.1- a, b rasmga qarang).

Magistral sxemalar quyidagi xarakterli xususiyatlarga ega:

1. Magistral sxemaning ishonchligi darajasi radial sxemaga nisbatan past hisoblanadi, chunki magistral buzilganda barcha iste'molchilar energiya manбайдan uziladi.

2. O'rnatiladigan apparatlarning ozligi va montaj ishlarining arzonligi hisobiga magistral tarmoqlarni tayyorlash radial tarmoqlarga nisbatan arzon tushadi.



3.2- rasm. Radial sxema.

3. Magistral sxemalarni shinali o'tkazgichlar asosida industrial usullar bilan tez va oson yig'ish mumkin.

4. Magistral tarmoqlarning qisqa tutashuv toklari katta bo'ladi, lekin ulardagi quvvat va kuchlanish nobudgarchiliklari radial tarmoqlardagiga nisbatan kam bo'ladi.

Amaliyotda sex iste'molchilarining energiya ta'minotida magistral va radial sxemalari aralash ishlatiladi hamda har xil toifali iste'molchilarning ishonchlikka qo'yiladigan talablari qoniqtiriladi.

3.2. TARMOQ KUHLANISHINI TANLASH

1000 V gacha bo'lgan sex elektr tarmoqlarida quyidagi kuchlanishli uch fazali tizimlar ishlatilishi mumkin.

127–220; 220–380; 380–660 V.

Kuchlanish 127 va 220 V bo'lgan uch fazali tizimni elektr ta'minoti uchun ishlatilsa, elektr energiyasi nobudgarchiligining miqdori katta bo'ladi va rangli metallning sarfi ko'p bo'ladi. Shuning uchun bunday tizimlar faqat yer osti qurilmalarida ishlatiladi. Sanoat korxonalarining elektr ta'minotida 220–380 V tizim eng ko'p tarqalgan. Sex podstansiyasidagi kuch transformatorlarining ikkilamchi chulg'amlari yulduz sxemasida ulaniladi. Bunday holda faza liniyalariaro kuchlanish 380 V bo'lsa, nol va faza liniyalari orasidagi kuchlanish 220V ni tashkil etadi. Kuchlanishi 220–380 V tizim ishlatilganda yoritish uskunalari va elektr yuritkichlarni bir tizimga ulash mumkin.

Sex maydonining yuza birligiga to'g'ri keladigan solishtirma yuklama miqdori katta bo'lgan hollarda kuchlanishi 380–660 V bo'lgan uch fazali tizim ishlatiladi. Bunday tizim boshqalariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

1. Kuchlanishi 660 V bo'lgan sex tarmoqlari uchun rangli metall kam ishlatiladi; bunday tarmoqlarda elektr energiyasining nobudgarchiligi 380 V li tarmoqlarga nisbatan oz bo'ladi.

2. Kuchlanishi 660 V bo'lgan elektr yuritkichni 380 V li tarmoqqa ulash mumkin. Buning uchun yuritkichning chulg'amlarini uchburchak sxemasida ulash kifoya.

3. Elektr yuritkichlarning quvvati 600–700 kVt atrofida bo'lganda, ularni 660 V kuchlanishga tayyorlansa, qurilmaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari eng optimal bo'lishi isbotlangan.

4. Agar 660 V kuchlanish qabul qilinsa, sex podstansiyalarida katta quvvatli transformatorlarni (2500 kVA gacha) ishlatish mumkin.

Shu bilan birga kuchlanishi 660 V li tarmoqlarning quyidagi kamchiliklari mavjud:

1. Yoritish qurilmalarini elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun maxsus 0,66/0,22 transformator o'rnatish kerak bo'ladi.
2. Kuchlanishni o'lchash zanjirlari uchun qo'shimcha 660/100 V li kuchlanish transformatorini ishlatishga to'g'ri keladi.

3.3. O'TKAZGICHLAR VA KABEL KESIMLARINI TANLASH

O'tkazgichlar, kabellarni tanlashda texnik va iqtisodiy omillarni hisobga olish kerak. Texnik omillar quyidagilardan iborat:

1. Ishchi (hisobiy) tok ta'siridan uzoq vaqt davomida qizishi.
2. Qisqa tutashuv toki ta'siridan qisqa vaqt davomida qizishi.
3. Normal va avariya holatlarda kuchlanish nobudgarchiligining miqdori.
4. Tashqi muhit kuchlariga (shamol, simning muz bilan qoplangan qismining og'irligi) va o'zining og'irligi ta'siridan sodir bo'ladigan mexanik yuklamaga chidamliligi.
5. Atrof-muhit, kuchlanish va o'tkazgichning kesimiga bog'liq bo'lgan omil – tojlanishga chidamliligi.

Iqtisodiy omil deganda, qabul qilingan o'tkazgichlar, kabellar va shinalarga ketadigan kapital hamda ekspluatatsiya xarajatlari tushuniladi. Yuqorida ko'rsatilgan omillar asosida kesimlarning quyidagi eng kichiklari aniqlanadi:

S_k – qizish bo'yicha minimal joiz kesim;

$S_{t, t}$ – q. t tokining termik ta'siriga bardoshlilik bo'yicha minimal joiz kesim;

S_m – mexanik mustahkamlik bo'yicha minimal joiz kesim;

S_k – tojlanishning shartlaridan kelib chiqadigan minimal joiz kesim;

$S_{\Delta v}$ – kuchlanish yo'qotuvi bo'yicha minimal joiz kesim.

Ishlab chiqarilgan kabellar uchun mexanik mustahkamlik va tojlanishning bo'lmasligi zavod tomonidan kafolatlanadi. Shuning uchun kabellar uchun S_m va S_k lar aniqlanmaydi.

O'tkazgich va kabellarning o'tish tokidan qizishini hisobga olib tanlashda quyidagi ikki munosabatdan foydalaniladi:

$$I_j \geq I_{ish} / K_m. \quad (3.1)$$

$$I_j \geq K_{him} \cdot I_{him} / K_m. \quad (3.2)$$

Bunda: I_j – o‘tkazgichning joiz davomiyli toki; I_{ish} – ishchi (hisobiy) tok; I_{him} – himoyalovchi apparatning nominal toki; K_m – o‘tkazgich va kabellarning o‘tkazish sharoitini hisobga oluvchi to‘g‘rilash koeffitsiyenti; K_{him} – himoyaning koeffitsiyenti.

O‘tkazgichlar va kabellarning har xil kesimlari uchun tokning joiz davomli qiymatlari «Elektr qurilmalarining tuzilish qoidalari» (EQTQ) jadvallarida keltirilgan. Bu jadvallar quyidagi sharoitlar uchun tuzilgan:

1. Atrof-muhitning harorati 25°C.

2. Tuproqning kabel yotqiziladigan chuqurligidagi (0,7m) harorati 15°C.

3. Transheyaga bitta kabel yotqiziladi.

Ushbu sharoitlar bajarilmasa, K_m to‘g‘rilash koeffitsiyenti kiritiladi. To‘g‘rilash koeffitsiyentlarining miqdori ham EQTQ jadvallarida keltirilgan.

Normal sharoitlar uchun (3.1) va (3.2) munosabatlar quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$$I_j \geq I_{ish}. \quad (3.3)$$

$$I_j \geq K_{him} \cdot I_{ish}. \quad (3.4)$$

Ishchi tok bo‘yicha qabul qilingan kesim (3.4) munosabat yordamida himoyalovchi apparatning ishlash tokini (I_{him}) aniqlash uchun liniyada qanday himoyalar (eruvchan saqlagichlar, avtomatik uzgichlar, magnit ishlatkichlarning issiqlik relyesi) qo‘llanilganligini bilish kerak.

Agar bu o‘rinda saqlagichlar ishlatilsa, eruvchan kiritmaning nominal toki himoyalash toki hisoblanadi. Yakka asinxron motor uchun himoyalash tokining miqdorini tanlash quyidagi munosabatlar asosida aniqlanadi.

$$I_{him} \geq I_{ish}. \quad (3.5)$$

$$I_{him} \geq \frac{I_{max}}{\alpha}. \quad (3.6)$$

Yakka asinxron motorni yengil ishga tushirilganda (ishga tushish vaqti 2,5 sekundgacha) $\alpha=2,5$;

Yakka asinxron motorni og'ir rejimda ishga tushirilganida (ishga tushish vaqti 2,5 sekunddan ortiq) $\alpha=1,6$.

I_{\max} — motorning ishga tushirish toki.

Agar saqlagich bir nechta motorlar ulangan liniyani himoyalasa:

$$I_{\max} = I_{\text{tush}} + I_{\text{ish}(n-1)}. \quad (3.7)$$

Bunda: I_{tush} — eng katta quvvatli motorning ishga tushirish toki, A; $I_{\text{ish } n-1}$ — qolgan barcha motorlarning ishchi (hisobiy) toklarining yig'indisi, A.

Quyidagi jadvalda saqlagichlarning ayrim turlariga tegishli nominal toklar 3.1- jadvalda keltirilgan:

3.1- jadval

Saqlagichning turi	Nominal tok, A	
	Saqlagich uchun	Saqlagichning eruvchan kiritmasi uchun
N-20	20	6; 10; 15; 20
N-60	60	10; 15; 20; 25; 35; 60
PR-60	60	15; 20; 25; 35; 60
PR-100	100	60; 80; 100
NPN-15	15	6; 10; 15
NPN-60	60	15; 20; 25; 35; 45; 60

Elektr tarmoqlari himoyalashiga qarab ikkiga bo'linadi:

1. O'ta yuklanish va q. t tokidan himoyalashuvchi tarmoqlar.
2. Faqat q. t tokidan himoyalashuvchi tarmoqlar.

Birinchi holda himoyaning koeffitsiyenti $K_{\text{him}}=1,25$, ya'ni:

$$I_j \geq 1,25 \cdot I_{\text{him}}. \quad (3.8)$$

Qog'oz izolyatsiyali kabellar ishlatilganda $K_{\text{him}}=1$, ya'ni:

$$I_j \geq I_{\text{him}}. \quad (3.9)$$

Liniya faqat qisqa tutashuv tokidan himoyalansa, $K_{\text{him}}=0,33$.

Hozirgi vaqtda sexlarning tarmoqlarida himoyalash apparatlari vazifasini avtomatlar bajarmoqda. Har qanday avtomat uchun quyidagi ifoda o'rinli bo'ladi:

$$I_{\text{nom}} \geq I_{\text{ish}}. \quad (3.10)$$

Bunda: I_{nom} — elektromagnit relye (расцепитель) uchun nominal tok, I_{ish} — liniyaning ishchi (hisobiy) toki. Elektromagnitli yoki qo'shma (elektromagnitli va qizuvchi) elementli uzgichlar uchun ishga tushirish toki va liniyaning qisqa muddatli maksimal toklari taqqoslanib ko'riladi:

$$I_{it} \geq 1,25 I_m. \quad (3.11)$$

Bunda: I_{it} — ishga tushish toki.

Yakka motor uchun I_m vazifasini ishga tushirish toki o'taydi. Liniya avtomat orqali himoya qilinganda ham $I_j \geq K_{\text{him}} \cdot I_{\text{him}}$ shartni bajarish kerak. Bunda: $I_{\text{him}} = I_{\text{nom}}$ — uzgichning nominal toki.

Misol. 380/220 Voltli magistral liniya elektr motorlar guruhini energiya bilan ta'minlaydi. Uch fazali, qog'oz izolyatsiyali alyuminiy simli kabel bino ichkarisiga yotqizilgan, atrof-muhit harorati $+25^\circ\text{C}$, liniyaning hisobiy ishchi toki $I_{\text{ish}}=100\text{A}$, motorlar yengil ishga tushiriladi, qisqa muddatli ishga tushirish toki $I_m=500\text{A}$. Kabelning kesimini quyidagi sharoitlar uchun aniqlang:

- a) liniya o'ta yuklanishdan saqlagich bilan himoyalani. Xona yong'indan xavfli emas;
- b) liniya o'ta yuklanishdan saqlagich bilan himoyalani. Xona yong'indan xavfli;
- d) liniya faqat q.t. tokidan himoyalani;
- e) liniya avtomat bilan himoyalangan. Xonada me'yoriy sharoit.

Yechish. a) EQTQ jadvalidan qog'oz izolyatsiyali alyuminiy simli, uch fazali kabel tanlanadi. Xona harorati me'yoriy bo'lganligi uchun $K_t=1$. U holda (3.3) ni hisobga olinsa, kabelning joiz toki $I_j > 100\text{ A}$ bo'lishi kerak. Ikkinchi shart bo'yicha tekshirish uchun saqlagichni tanlash kerak. (3.7); (3.6) munosabatlarni hisobga olinsa:

$$I_{\text{him}} \geq \frac{500}{25} = 200\text{ A}.$$

EQTQ jadvalida PN 2-250 tipdagi saqlagichning eruvchi kiritmasining nominal toki 200 A me'yoriy sharoitda $K_{\text{him}}=1$, u holda:

$$I_j \geq I_{\text{him}} = 200\text{ A}.$$

Ikkinchi shart bo'yicha joiz tokning miqdori katta bo'lganligi uchun EQTQ jadvalda $I_j=200\text{A}$, kesimi 120 mm^2 bo'lgan kabelni qabul qilamiz.

b) xona yong'indan xavfli bo'lganligi uchun $K_{him}=1,25$. U holda $I_j \geq 1,25 \cdot I_{him} = 1,25 \cdot 200 = 250A$. Jadvaldan $I_j=255A$, kesimi 150 mm^2 bo'lgan kabel olinadi.

d) liniya faqat qisqa tutashuv tokidan himoyalansa, $K_{him}=0,33$. U holda $I_j \geq 0,33 \cdot I_{him} = 0,33 \cdot 200 = 66A$ va jadvaldan kesimi 50 mm^2 va $I_j=120A$ bo'lgan kabel olinadi.

e) nominal toki $160A$ bo'lgan A3710B tipidagi avtomat olinadi. Uzgichning nominal toki $100A$. $4 \cdot 10$ shartga binoan $I_{nom} \geq I_{ish}$. Bizning holda $I_{nom}=I_{ish}=100A$.

Qisqa muddatli ishga tushish vaqtida avtomatning ishlamasligi tekshirib ko'riladi:

$$I_{ish} \geq 1,25 \cdot I_m = 1,25 \cdot 500 = 625A, \text{ ya'ni: } 625 < 1000A.$$

Bunda: $1000A$ - avtomatning bir onda ishlash toki.

Liniyaning kesimini tanlash uchun hisobiy tok $I_{ish}=100A$ bo'lgani uchun kesimi 50 mm^2 , $I_j=120A$ bo'lgan kabel tanlanadi. ($I_j > I_{ish}$).

Kabel normal sharoitda ishlatilishi va A3700 seriyadagi avtomatlarda o'rnatma (ustavka) toki boshqarilmasligini hisobga olsak, $K_{him}=1$. U holda (3.4) dan $I_j \geq I_{him}$ shart bajariladi, ya'ni: $120 > 100A$.

3.4. FUQARO BINOLARINING ELEKTR TARMOQLARI

1000 V gacha bo'lgan fuqaro va jamoa binolarining elektr tarmoqlari shartli ravishda ta'minlaydigan va taqsimlaydigan turlarga bo'linadi. *Ta'minlaydigan tarmoq* deb, transformator podstansiyasidan KTQ (kirish taqsimlovchi qurilma) gacha va KTQ dan kuch taqsimlovchi punktgacha va yoritish tarmog'ining guruh shchitlargacha bo'lgan liniya hisoblanadi.

Taqsimlovchi tarmoq deb, taqsimlovchi punktlardan ko'p elektr iste'molchilargacha bo'lgan liniyaga aytiladi.


Guruh tarmoqqa quyidagilar kiradi:

— yoritish guruh shchitoklardan yoritkichlargacha bo'lgan liniyalar;

— qavatlardagi guruh shchitoklardan fuqaro binolari xonadonlardagi elektr iste'molchilargacha bo'lgan liniyalar.


Tarmoqlar radial, magistral va aralash sxemalar bo'yicha amalga oshiriladi. Misol sifatida 3.3- rasmda binoning kuch tarmog'ining radial sxemasi va 3.4- rasmda binoning kuch tarmog'ining magistral sxemasi ko'rsatilgan.

Fuqaro va jamoa binolarida guruhiy tarmoq liniyalari guruhiy shchitoklardan shtepsel rozetkalarigacha o'tkazadi. Bu liniyalar uch simli (faza, nolli ishchi va nolli himoya o'tkazgichlari). Statsionar bir fazali elektr iste'molchilar uch simli liniyalardan ta'minlanadi. Bunda nol ishchi va nol himoya o'tkazgichini bir kontaktli qisqich ostida ulash mumkin emas.



3.3.- rasm. Kuch tarmog'ining radial sxemasi:

1 – taqsimlovchi shchit; 2 – avtomatik o'chirgich; 3 – ishga tushiruvchi apparat; 4 – liniya; 5 – taqsimlovchi punkt; 6 – elektr iste'molchi.



3.4.- rasm. Kuch tarmog'ining magistral sxemasi:

1 – taqsimlovchi shchit; 2 – avtomatik o'chirgich; 3 – ta'minlovchi liniya; 4 – kuch taqsimlovchi punkti; 5 – elektr priyomnigi; 6, 7, 8 – bitta zanjirga ulangan elektr iste'molchilar.

Jamoa binolarida xonadonlardagi gorizontal ta'minlovchi liniyalar mumkin qadar kam bo'lishi kerak. KTQ dan chiquvchi har bir ta'minlovchi liniyaning yuklamasi 250 A dan ortmasligi zarur.

Balandligi 4 va undan ko'p qavatli uylarda gorizontal ta'minlovchi liniyalar ikkitadan ortmasligi zarur. Agar xonadonlardagi yuklamani ikkita liniya ta'minlay olmasa, liniyalar sonini oshirishga ruxsat beriladi.

Balandligi 4 va undan ko'p qavatli uylarning stoyaklari soni, ularni ta'minlovchi liniyalari va KTQ ulanish sxemalari yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- qavatlar soni 10 tagacha bo'lgan gaz plitali va qavatlar soni 5 tagacha elektr plitali uylarda — seksiyaga bitta stoyak. Agar konstruktiv mulohaza nuqtai nazaridan yoki buni texnik-iqtisodiy hisoblar tasdiqlasa stoyaklar sonini oshirish mumkin.

- qavatlar soni 5 dan 17 gacha bo'lgan elektr plitali binolarda — bitta stoyak har bir qavatga, 4 tagacha xonadonni seksiyaga ulash bilan yoki ikkita stoyak, bittasiga yuqori qavatlardagi joylashgan xonadonlarning 40% va ikkinchi stoyakka — pastki qavatlarda joylashgan xonadonlarning 60% ni ulash sharti bilan;

- balandligi 17 qavatdan ko'p bo'lgan uylarda — ikkita stoyak har bir seksiyaga qavatdagi 4 tagacha xonadonga seksiyaga ulash mumkin.

Fuqaro binolarining elektr tarmoq sxemalari quyidagilarga asoslanib bajariladi:

- xonadonlar va katta quvvatli iste'molchilar, liftlar ta'minoti umumiy KTQ seksiyalardan amalga oshirilishi kerak. Agar liftlar ulanganda xonadonlardagi lampalarning qisqichlardagi kuchlanishning tebranish qiymatlari GOST 13109–98 belgilangandan ortganda ular alohida-alohida ulanadi.

- bitta seksiyada o'rnatilgan tutun tortuvchi va havoni to'suvchi ventilyatorlarning liniyalari har bir ventilyator yoki shkaf uchun alohida bo'lishi kerak.


Bitta ta'minlovchi liniyaga bir nechta stoyaklar ulash ruxsat etiladi. Buning uchun 5 qavatdan yuqori bo'lgan fuqaro binolaridagi har bir stoyakka ketuvchi tomonga o'chiruvchi apparat o'rnatiladi. Zinalar, har bir qavatdagi dahlizlar, vestibyullar,

binoga kirish yo‘llarining raqam belgilari va o‘t o‘chirish gidrantlar ko‘rsatkichlari, domofonlarni yoritishini KTQ liniyalaridan ta‘minlanadi. Bunda domofonlar va cheklagichlarning yoritish chiroqlari ta‘minlovchi liniyalar alohida bo‘lishi kerak. Televizion signallar kuchaytirgichlarning ta‘minoti cherdaklarni yorituvchi guruhiy liniyalardan, cherdaksiz binolarda – KTQ dan alohida liniyalar orqali amalga oshiriladi.

Fuqaro binolarini umum iste‘molchilarining katta quvvatli iste‘molchilari (liftlar, nasoslar, ventilyatorlar) KTQ dan boshlab mustaqil tarmoqdan ta‘minot oladi.


3.5- rasmda balandligi 5- qavatgacha bo‘lgan elektr plitasiz turar joy binolarning zaxirali ulanishli kabel tarmog‘ining ta‘minotini magistral sxemasi ko‘rsatilgan. Zaxirali ulagich 8 istalgan ta‘minlovchi liniyalar 9 yoki 10 ishdan chiqqanida ulanadi. Ta‘minlovchi liniyalar avariya holatidagi tokka va kuchlanishni ruxsat etilgan yo‘qotishlarga hisoblanadi. Bu sxemani kamchiliklariga zaxirali ulagich normal holatda ishlatilmaydi.

3.6- rasmda tavsiflangan sxemaning o‘zgargan shakli keltirilgan. Bunda binoning kirishiga rubilniklar o‘rniga pereklyuchatellar o‘rnatiladi. Sxemaning kamchiligi bu har bir xonadonga to‘rtta kabel kirishi kerak (oldingi holdagi ikkita o‘rniga).




3.5.- rasm. Zaxira ulagichli balandligi 5 qavatgacha bo‘lgan turar joy binolari elektr ta‘minotining prinsipial sxemasi:

1–transformator podstansiyasi; 2,3,4–turar joy binolari;
5,7– saqlagichlar; 6–rubilnik; 8–zaxira ulagichi; 9,10–ta‘minlovchi liniyalar; 11– KTQ.



3.6.- *rasm.* Almashlab ulagichli balandligi 5 qavatgacha bo'lgan turar joy binolari elektr ta'minotining prinsipial sxemasi:
 1—transformator podstansiyasi; 2,7—saqlagichlar; 3,4,5—turar joy binolari; 6—KTQ; 8 —almashlab ulagichlar; 9,10—ta'minlovchi liniyalar.


Balandligi 9–16 qavatli fuqaro binolarining elektr iste'molchilarining ta'minoti uchun radial hamda magistral sxemalar qo'llaniladi. 3.7- rasmda binoning kirishlarida ikkita almashlab ulagichli magistral sxema berilgan. Ta'minlovchi liniyalarning biri xonadonlardagi elektr iste'molchilarini va umumiy uy xonalarini yoritish uchun foydalaniladi; ikkinchisi esa - liftlarni, yong'inga qarshi moslamalarni, evakuatsion va avariya yoritkichlar ulanadi. Har bir liniya avariya holatda ruxsat etilgan



3.7.- *rasm.* Kirishida ikkita almashlab ulagichli balandligi 9–16 qavatli turar joy binolari elektr ta'minotining prinsipial sxemasi:
 1,2—transformatorlar; 3—saqlagichlar; 4—almashlab ulagichlar; 5,6—KTQ; 7,8— ta'minlovchi liniyalar.

o'ta yuklanishni hisobga olgan holda hisoblanadi. Bu sxema bo'yicha ta'minotdagi uzilish 1 soatdan ortmaydi, bu elektr montyorga KTQ da kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish yetarli bo'ladi.

3.8- rasmda yuqorida ko'rsatilgan turar joyni ta'minlovchi sxema ko'rsatilgan, lekin uchta kirishli, shu bilan birga kirish joylari bir-birini zaxiralaydi.




3.8- rasm. Bir transformatorli podstansiyadan ta'minlangan jamoa binosi elektr ta'minotining prinsipial sxemasi.

- 1 –KTQ ni ta'minlovchi liniya;
- 2–taqsimlovchi punkt ni ta'minlovchi liniyalar;
- 3–taqsimlovchi punktlar;
- 4,6–liniyalar;
- 5–ishchi yoritish guruhiy shchitlari;
- 7–evakuatsion yoritish shchiti.


Balandligi 9–16 qavatli elektr plitali uylarni ta'minlaydi, gaz plitali va ko'p xonadonli uylarning kirish joyini ko'proq bo'lishi zarurligi yuzaga keladi.

Bu sxemaning o'zgargan shakli 3.5- rasmda keltirilgan. Podstansiyadagi kichik kuchlanishli sborkalarning bittasini remontga chiqarganda bunday sxema qulay. Ta'mirlash davrida elektr priyomniklarning bir qismini o'chirib qo'yish kerak, chunki bitta kabelga uyning hamma yuklamasi to'g'ri keladi, bu esa sxemaning kamchiligi hisoblanadi.

Katta shaharlarda mas'uliyatli iste'molchilarni ta'minlash uchun quyi kuchlanishli tomonida ZAU qurilmali ikki transformatorli podstansiya keng qo'llaniladi. Shunday TP li sxemalar 3.9- rasmda (kontaktorli ZAU) va 3.10- rasmda (avtomatik o'chirgichli ZAU). Jamoa binolarida bitta liniyadan ta'minlovchi yoritish tarmoqlarini bir nechta vertikal stoyaklarini ulash tavsiya etiladi. Uchta va undan ko'proq gu-



3.9- rasm. ZAU kontaktorlarda bajarilgan ikki transformatorli podstaniyadan ta'minlangan jamoa binosi elektr ta'minotining prinsipl sxemasi:
1—kontaktorli stansiyalar;
2,3—binoga kiruvchi liniyalar.



3.10- rasm. ZAU seksiyalangan avtomatik o'chirgichda bajarilgan va binoning ichida joylashgan TP li jamoa binosi elektr ta'minotining prinsipl sxemasi:
1—avtomatik o'chirgich;
2—seksiyalangan avtomatik o'chirgich; 3—katta quvvatli iste'molchilarga va avariya yoritkich shchitlarga ketuvchi liniyalar; 4—ishchi yoritish shchitlariga ketuvchi liniyalar.

ruhiy shchitlarni ta'minlaydigan har bir stoyakning boshiga kommutatsion apparat joylashtirish kerak.

Agar stoyak alohida liniyadan ta'minlanadigan bo'lsa, stoyakning boshiga kommutatsion apparat qo'yilishi talab qilinmaydi.

Bitta liniya, bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan zinalar va hollarda joylashgan, 4 ta liftdan ortig'ini ta'minlashi mumkin emas.

Zinalarda yoki liftli hollarda ikkita yoki undan ko'proq liftlar mavjud bo'lsa, har biri KTQ yoki GRSH ga ulangan ikkita liniyadan ta'minlanishi zarur, bunda bitta liniyaga bog'langan liftlarning soni cheklanmaydi.

Har bir liftning kirish joyiga kommutatsion va himoya apparati qo'yilishi ko'zda tutilishi shart.

Katta quvvatli taqsimlovchi shchitlarga, punktlarga va elektr yoritish tarmog'ining guruh shchitlariga elektr energiya taqsimoti magistral sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Radial sxemalar katta quvvatli elektr motorlarni, umum texnologik vazifali guruh elektr iste'molchilarni, elektr ta'minoti ishonchiligi bo'yicha 1- toifali iste'molchilarni ulaganda qo'llaniladi.

600 ta va undan ko'proq insonlar uzoq vaqt joylashishi mumkin bo'lgan xonalarning ishchi yoritish ta'minotini har xil

kirishlardan amalga oshirish tavsiya etiladi, bunda har bir kirishga yoritkichlarning 50% ulanishi kerak.

3.5. TARMOQLARNI HIMOYALASH

Turar joy va jamoa binolarining elektr tarmoqlari qisqa vaqt ichida o'chirishni va selektivlik talabni ta'minlaydigan qisqa tutashuv yukidan himoyaga ega bo'lishi kerak. Himoyalangan liniyaning oxirida bo'lgan qisqa tutashuvda;

bir, ikki va uch fazali – neytrali puxta zaminlangan tarmoqlarda;

ikki va uch fazali – neytrali izolyatsiyalangan tarmoqlarda himoya shikastlangan uchastkani o'chirishi shart. Himoya apparatlari shunday tanlanadi va joylashtiriladiki, ularning sabr vaqtlar ishi manbadan uzoqlashgan sari o'sib boradi. Bu bilan himoyani tanlay olish qobiliyati ta'minlanadi, chunki avtomatik havo o'chirgichlar va saqlagichlar qo'llanilganida 1 kV gacha bo'lgan tarmoqlarda himoyani tanlay bilish qobiliyati hamma vaqt ham amalga oshmaydi.

Eruvchan saqlagichlarning afzalligiga qurilmaning soddaligi, nisbatan kam arzon narxligi, qisqa tutashuv vaqtida tez o'chirish qobiliyati, qisqa tutashuvda PS tipdagi saqlagichlarning zanjirdagi tokni chegaralash qobiliyati mavjudligi kiradi.

Eruvchan saqlagichlarning kamchiliklariga quyidagilar kiradi; saqlagichlar eruvchan kiritmaning nominal tokidan katta bo'lgan tokda ishga tushadi va shuning uchun tarmoqning alohida qismlaridagi tanlovchanlik ta'minlab berolmaydi; tarmoqning eruvchan saqlagichlar bilan o'chirilishi, odatda, o'ta kuchlanish bilan bog'liq; bir fazali o'chirish bo'lishi mumkin va natijada qurilma normal ishlamaydi; saqlagichning bir marta ishlatilishi va uni almashtirish uchun ma'lum vaqtning talab etilishi.

Kuchlanishi 1 kV bo'lgan qurilmalarning himoyasi uchun quyidagi saqlagichlar keng tarqalgan:

Turar joy va jamoa binolari uchun himoyaning tezkorligi uning asosiy xarakteristikasi hisoblanadi.

Saqlagichga nisbatan avtomatik o'chirgich ancha murakkab va mukammal vosita. Avtomatik havo o'chirgichlari ularga biriktirilgan quyidagi uzgichlar bilan ta'minlanadi:

1. Ishlash tezligi tokka bog‘liq bo‘lmagan bir onda yoki sekin ishlaydigan maksimal tokli elektromagnit yoki elektronli uzgich;

2. Sabr vaqti tokka bog‘liq bo‘lgan elektromagnitli elektrotermik yoki issiqlik (odatda bimetalik) yoki elektron inersiyali uzgich;

3. Minimal kuchlanishli uzgich.

Avtomatik o‘chirgichning issiqlik uzgichi ta‘minot liniyasi yoki asinxron motorini qisqa tutashuv tokidan himoya qilmaydi, chunki issiqlik uzgichi katta issiqlik inersiyasiga ega bo‘lganligi uchun qisqa tutashuv mavjud bo‘lgan kichik vaqtda qizib ulgurmaydi.

Avtomatli uzgich sabr vaqtiga qarab quyidagilarga bo‘linadi: noselektiv uzgichlar (sabr vaqti 0,02 ... 0,1s); sabr vaqti boshqariladigan uzgichlar; tok cheklovchi uzgichlar (ishga tushish vaqti 0,005s dan ortmaydi). Maksimal tok uzgichlari barcha fazalarga o‘rnatiladi. Qolganlari esa har bir o‘chirgichga bittadan o‘rnatiladi.

Bitta o‘chirgichda tok uzgichi va minimal kuchlanishi uzgichi qo‘llaniladi. Maksimal tok uzgichining nominal toki yoki o‘rnatma tokini tanlash saqlagichlarining eruvchan o‘rnatmasining nominal tokini tanlash kabi amalga oshiriladi.

Avtomatik o‘chirgichlarning asosiy avzalliklari quyidagilardan iborat:

1. O‘ta yuklamada yoki qisqa tutashuvda uchala fazani o‘chiradi, shu bilan elektr qurilmalarini to‘la bo‘lmagan fazalar rejimida ishlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

2. Ishlab bo‘lib yana ishlashga tayyor turadi.

3. Ancha aniq bo‘lgan vaqt tok tavsifiga ega.

4. Himoya va kommutatsiya funksiyalari birgalikda bajariladi.

Himoya apparatlarini o‘rnatish joylari quyidagicha tanlanadi.

1. Himoya apparatlari xizmat ko‘rsatishga qulay bo‘lgan shunday joyga o‘rnatilishi kerakki, bunda ularni mexanik shikastlanishlardan himoyalaniishi va xizmat ko‘rsatuvchi shaxs uchun xavf tug‘dirmasligi kerak.

2. O‘tkazgichning kesim yuzasi kamayadigan yoki himoyaning sezgirligi va tanlay bilish qobiliyatini qo‘llashi zarur bo‘lgan joyda.

3. Avtomatik o‘chirgichlar va saqlagichlar yordamida tarmoqning himoyasi hamma normal zaminlanmagan fazalarda o‘rna-

tilishi kerak. Nul o'tkazgichlarda apparatlarning o'rnatilishi kerak emas.

4. Xonadonlardagi guruhiy shchitlarda saqlagichlar va avtomatik o'chirgichlar faqat fazani o'tkazgichlarga o'rnatilishi kerak. Hisoblagichdan oldin ikki qutbli o'chirgich o'rnatiladi. U xonadonga kiruvchi faza va ishchi nul simni o'chiradi.

5. Himoya apparatlari o'rnatish quyidagilarda ko'zda tutilmaydi.

a) ta'minlovchi liniyaning kesim yuzasi kamaygan joylarda, agar oldingi uchastkadagi himoya kesim yuzasi kamaygan uchastkani himoyalaganda yoki himoyalangan liniyaning uchastkasini yoki tarmoqlangan liniyada o'tkazgichning kesim yuzalari himoyalangan uchastkalarining kesim yuzalarini yarmidan kamini tashkil etganda;

b) ta'minlaydigan liniyadan tarmoqlanadigan o'tkazgichlarning o'lchov, boshqarish va signalizatsiya zanjirlarida;

d) shchit shinalardan tarmoqlanadigan shu shchitga o'rnatilgan apparatlarga ketuvchi o'tkazgichlarga; bu o'tkazgichlar hisobiy toki bo'yicha tanlanishi kerak. Himoya apparatlari ularning himoya xarakteristikalarini bo'yicha tanlanadi.

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH SAVOLLARI

- 1. Ta'minlaydigan taqsimlovchi va guruhiy tarmoqlarga ta'rif bering.*
- 2. Sex elektr tarmoqlariga qanday talablar qo'yiladi?*
- 3. Radial va magistral sxemalarni taqqoslang.*
- 4. Sex elektr tarmoqlarida qanday kuchlanishlar qo'llaniladi?*
- 5. Texnik va iqtisodiy omillar nimalardan iborat?*
- 6. Joiz qizish bo'yicha kesim qanday tanlanadi?*
- 7. Fuqaro binolarining elektr tarmoq sxemalari nimaga asoslanib bajariladi?*
- 8. Fuqaro binolarining umum iste'molchilari qayerdan ta'minot oladi?*
- 9. Eruvchan saqlagichlarning kamchiliklariga nimalar kiradi?*
- 10. Fuqaro va jamoa binolari uchun nima himoyaning asosiy xarakteristikasi hisoblanadi?*
- 11. Avtomatli uzgich sabr vaqtiga qarab qanday bo'ladi?*
- 12. Avtomatik o'chirgichlarning asosiy avzalliklari nimadan iborat?*
- 13. Himoya apparatlarini o'rnatish joylari qanday tanlaniladi?*
- 14. Himoya apparatlari o'rnatish nimalarda ko'zda tutilmaydi?*

IV BOB.

KUCHLANISHI 1000 V DAN YUQORI BO‘LGAN ELEKTR ENERGIYASINING TAQSIMLANISHI

